Zamonaviy kimyo, neft va neft-gazni qayta ishlash korxonalari xalq xo‘jaligi uchun juda zarur bo‘lgan ko‘p sonli mahsulotlarni olish uchun mo‘ljallangan murakkab texnologik qurilma, mashina va uskunalar majmuasini aks ettiradi. Bu texnologik uskunalar konstruksiyasi va qo’llanishi bo‘yicha turlicha bo‘lgan mashinalar, qurilmalar va transport vositalarini, shuningdek, avtomatik rostlash va nazorat qilish vositalarini o‘z ichiga oladi. Bularning hammasi umumlashgan holda **uskunalar** deb ataladi.

Maqsadli texnologik jarayonlarni olib borish uchun ishlatiladigan uskunalarni, sanoatning turli sohalarida qo’llanadigan tipik uskunalardan farqli o‘laroq **texnologik** yoki **asosiy** deb ataladi.

Korxonalar tarkibiga uning normal faoliyatini ta’minlab turuvchi sexlar va uchastkalar ham kiradi, vaholanki ular xom-ashyoni qayta ishlash va tayyor mahsulot olish jarayonida bevosita ishtirok etmaydi. Ularga tovar, xom-ashyo va transport sexlari, elekrotexnik va issiqlik texnikasi uchastkalari, ta’mirlash va boshqa yordamchi bo‘limlar kiradi. Bunday sexlar, uchastkalar va bo‘limlarning ishi ham umumiyligida maxsus tayinlangan turli xildagi uskunalarni ekspluatatsiya qilishga asoslangandir.

Har qanday uskunaning doimiy ishga yaroqliligiga uni to‘g‘ri ekspluatatsiya qilish va o‘z vaqtida, sifatli ta’mirlash orqali erishiladi.

Sanoat korxonasini ishga tushirish uchun loyihamda tasdiqlangan, barcha qurilish-montaj ishlari oxiriga yetgan bo‘lishi, shuningdek, ushbu loyihami amalga oshirishda yuzaga kelgan muammolar hal qilingan bo‘lishi kerak.

Ishning qurilish qismini maxsus qurilish tashkilotlari yoki sexlar uch bosqichda bajaradi:

1) uskunalarni montaj qilishni boshlashdan oldin qurilish obyekti uchun ajratilgan (uchastkaning vertikal va gorizontal loyihalash, yo‘llar, poydevorlar va tayanchlar, uzatuvchi quvurlar, omborlar, montaj maydonlari, quruvchilar va montajchilar uchun maishiy xonalar va h.);

2) uskunalarni montaj qilish bilan bir vaqtida (bino va inshootlarni qurish, pardozlash ishlari va h.);

3) asosiy montaj ishlarini tugatilgandan so‘ng (korxona ichki va tashqi hovlisini obodonlashtirish ishlari).

Uskunalarni montaj qilish deganda uskunani ish holatiga keltirish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar majmuasi tushuniladi. Buning uchun montaj qilinayotgan uskuna butkul yig‘ib bo‘lingan, loyiha holatida qurilgan va yagona texnologik tizimga tegishli kommunikatsiyalar yordamida ulangan bo‘lishi kerak.

Uskunalar va kommunikatsiyalarning turlicha ekanligi montajni maxsuslashtirish – ish sifatini va ishlab chiqarishni ko‘tarilishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Hozirda texnologik va yordamchi uskunalar umumiyligi montaj ishlaridan maxsus montaj ishlari (elektr va issiqlik, ishlab chiqarishni avtomatlashdirish vositalari va nazorat-o‘lchov asboblari tizimi montaji, korroziyaga qarshi himoya, uskunalar yuzasini issiqlik izolyatsion material bilan o‘rash va h.) ajratib olinadi.

Texnologik uskunalarning montaji ishlab turgan sanoat korxonalarini rekonstruksiyalash va yangilarini qurish, shuningdek, ishga yaroqsiz bo‘lib qolgan uskunalarini yangi va samarador qurilmalariga almashtirish bilan amalga oshiriladi. Oxirgi ikki holatda demontaj – montajga teskari bo‘lgan jarayon eng birinchisi bo‘lib hisoblanadi.

Montaj va demontajning texnologik elementlarini o‘xshashligiga qaramasdan, alohida xavfsizlik choralarini ta’minalash zarurati va ishlarning ketma-ketligi bilan bog‘liq bo‘lgan ekspluatatsiya jarayonida uskunalar demontajining ba’zi bir xususiyatlarini hisobga olish zarurdir.

Kimyo va neftni qayta ishlash korxonalarini uskunalarini loyihalash, qurilish va ekspluatatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan montaj va demontaj ishlarini, hamda ilg‘or usullarini va ularni qo‘llash usullarining tasnifini bilish, har bir mexanik uchun shart hisoblanadi. Loyihalash vaqtida uskunalarning montajga moyillik xarakteristikasi hisobga olinadi, ya’ni montaj va demontaj ishlarini ko‘p mehnat sarflamasdan va qisqa muddatda olib borish imkoniyati hisobga olinadi. Obyektning qurilishi va qayta qurilish muddati ko‘pincha to‘g‘ri ishslash va uskunalar montajini optimal tashkil etilishiga bog‘liq.

Muayyan ish parametrlari chegaralarida uskunalarini puxta va xavfsiz ekspluatatsiya qilish – aniq, uskunalarini ishlatish va nazorati bo‘yicha ma’lum bir vaqtda loyihalangan tadbirlarni o‘tkazish, shuningdek, zarur bo‘lgan ta’mirlash ishlarini olib borish ishlarini qat’iy bajarilishi orqali amalga oshiriladi. Bu texnik-tashkiliy tadbirlar majmuasi kimyo va neftni qayta ishslash sanoatida loyiha-ogohlantiruv ta’mirlash tizimi (LOT) yoki uskunalarini ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish tizimi deb ataluvchi yagona tizimni tashkil qiladi.

Loyiha-ogohlantiruv ta’mirlash yoki texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash tizimlarini amalga oshirish uchun korxonalarda tegishli xizmatlar va bo‘limlari (bosh mexanik, bosh energetik, nazorat-o‘lchov asboblari, arxitektura va qurilish va boshqalar) bor. Bosh mexanik bo‘limi xizmati (texnik va umumiyligi uskunalarning maxsus bo‘lmagan) kommunikatsiya va transportning LOT tizimini ta’minlaydi, korxonada bosh arxitektor yoki bosh quruvchi xizmatlari bo‘lmaganda esa – hamma bino, inshootlar va yo‘llar LOT tizimini ta’minlaydi.

LOT tiziminining yoki texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash tizimining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib mehnat va moddiy sarflarning asosiy qismini mujassamlashtiruvchi – uskunalarini ta’mirlashni o‘tkazish va uni tashkil qilish hisoblanadi.

Ta'mirlashni tayinlash – bu uskunalarning samarali ekspluatatsiyasi va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarning yuqori darajasiga erishishdir. Shu maqsadda ta'mirlash bir qancha ishlar majmuasini o'z ichiga oladiki, bular – uskunalarning yemirilishi va eskirishini to'xtatishga yoki oldini olishga yo'naltirilgandir. Shuningdek, uskunalarning ba'zi bir detallari va qismlari, materiallarining fizik-mexanik xossalarni va shakllarini, o'lchamlarini to'liq yoki qisman qayta tiklash ishlari o'tkaziladi. Barcha uskunalar ham bundan mustasno emas.

Ta'mirlash va montaj ishlarini to'g'ri tashkil qilishning asosi – ularni ta'mirlash va montaj qilish, qism va detallarning o'zaro o'rin almashishi, unifikatsiyasi va turkumlashning ilg'or ko'rinishidagi texnologiyalarini qo'llash negizida maksimal industrlashtirish yo'nalishi hisoblanadi.

Ta'mirlash tizimini takomillashtirish va ishchi-ta'mirlovchilarning ishlab chiqarishi unumdorligini ko'tarish uchun zahira – yirik korxona, kombinat, hatto territoriya jihatdan bir-biriga yaqin joylashgan bir necha zavod va kombinatlar ta'mirlash ishlarini markazlashtirish hisoblanadi.

Markazlashtirish – moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishga, shuningdek, mexanizatsiyalash va industrlashtirishning harakatchan vositalarini ularning yuqori samaradorligidan foydalangan holda qo'llash imkonini beradi. Zahira qismlarini tayyorlashni markazlashtirish va bu asosda uskunalar, qismlar va detallarning almashtirish fondi negizini yaratish, alohida qismlar va detallar tayyorlashda joydagi detal ta'miri bilan bog'liq bo'lgan sarflarini mumkin qadar qisqartirish imkonini beradi.

Loyihalash vaqtida uskunalarning montajga moyillik tasnifi hisobga olinadi, ya'ni montaj va demontaj ishlarini ko'p mehnat sarflamasdan va qisqa muddatda olib borish imkoniyati hisobga olinadi. Obyektning qurilishi va qayta qurilish muddati ko'pincha to'g'ri ishlash va uskunalar montajini optimal tashkil etilishiga bog'liq bo'ladi.

Ta'mirlashning barcha turlari avvaldan belgilangan ketma-ketlikda ma'lum bir qayta ishlangan agregat (mashina) – soat sonida bajariladi.

Ta'mirlashlararo (yoki ta'mirlash) sikli deb, bir kapital ta'mirlashdan keyingi kapital ta'mirlashgacha bo'lgan vaqtga aytildi. Bu vaqt tarkibiga rejaviy ta'mirlashning hamma ko'rinishlaridagi uskunalarning ishi va turib qolish holatlari ham kiradi.

Asosiy uskunalarning ta'mirlash siklining davomiyligi ko'pgina hollarda yagona tarmoli me'yor normativlar bilan aniqlanadi.

Jihozlarni ishga tushirishdan oldin: qabul qilish; qayta ochish; o'rnatish, ishga tushirishga tayyorlash va tartibga solish; ishga tushirish va texnik holatni nazorat qilish kabi ishlar amalga oshiriladi.

Har qanday mulk shaklidagi korxonalarga yetkazib beriladigan barcha yangi jihozlar asosiy vositalarni qabul qilish va topshirish dalolatnomasi (schyot-fakturasi) tuzilgan holda komissiya tomonidan qabul qilinishi kerak

Import qilingan uskunani sotib olgan korxona ishlab chiqaruvchi yoki diler bilan shartnoma tuzadi, unda yetkazib berish, sotishdan oldingi tayyorgarlik, kafolat va kafolatdan keyingi xizmat ko'rsatish shartlari ko'rsatiladi. Transport korxonalaridan yangi va ta'mirlangan texnikalarni qabul qilishda qo'shimcha hujjatlarga ko'ra, kelgan joylar sonini, qadoqlashning yaxlitligini va plombalarning mavjudligini tekshirish kerak.

Agar tekshirish vaqtida transport joylari, uskunaning alohida qismlari va (yoki) ularning butunligi buzilishi aniqlansa, transport tashkiloti vakili ishtirokida uskunani qabul qilish dalolatnomasi tuziladi. Transportirovka qilish tizimi qonun-qoidalariga binoan, qabul qilish punktining yo'l bo'limi etkazib berish muddatini buzganlik, yo'lda yukning yo'qolishi yoki shikastlanishi uchun javobgardir.

Jihozni qabul qilishda muhrlarning mavjudligi va uning to'liqligi pasportga (shakl) muvofiq tekshiriladi. To'liqligini tekshirish uchun talablar qo'llanmada ko'rsatilgan. Shunga ko'ra, ular ishlab chiqaruvchi tomonidan etkazib berish buyurtmachi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladigan operatsion hujjatlarning mavjudligi va to'liqligini tekshiradi va quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

ishlatish yuriqnomasi (RE); o'rnatish, ishga tushirish, sozlash va ishga tayyorlash bo'yicha ko'rsatmalar (IM);

shakl (formulyar) (FO) yoki passport (PS); qaydnama (ZP); detallar va yig'ish birliklari katalogi (KDS); ehtiyoj qismlarni sarflash meyorlari (NZCH); materiallarni sarflash meyorlari (NM); o'quv va texnik plakatlar (UP); ishlatish hujjatlari qaydnomasi (VE).

Korxonaga keltirilgan jihozlar yig'iladi, texnik xizmat ko'rsatilib, sinovdan o'tkaziladi (tashqi tekshirish, yuklamasiz ishlashini tekshirish). Tashqi tomonlama nazoratdan o'tkazish vaqtida alohida qismlar va jihozlarning texnik holati, yuklamasiz ishlaganda esa barcha agregatlarning ishlashi tekshiriladi.

Uskunalarni sinovdan o'tkazish bosh mexanik rahbarlik qiladigan komissiya tomonidan amalga oshiriladi va yangi kelgan uskunalar uchun texnik holat sertifikati tuziladi.

**Montaj (o'rnatish) ishlariga** - mashinalarni yakuniy yig'ish, ularni loyiha bo'yicha o'rnatish, ishlab chiqarish liniyalariga ulash, sozlash va ishga tushirish bilan bog'liq ishlar majmuasi kiradi.

Quduqlarni burg'ulash va neft va gaz qazib olish uchun uskunalarni montaj (o'rnatish) quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

Umuman olganda, montaj ishlarini quyidagi asosiy bosqichlarga bo'lish mumkin: tayyorgarlik, haqiqiy o'rnatish va uskunani yakuniy ishga tushirish. Ish hajmini ushbu bosqichlar orasidagi taqsimlanishi va vaqt oralig'i mashinalarning konstruktiv xususiyat-lariga, ularni etkazib berish turiga (katta bloklar yoki kichik bloklar) va o'rnatish sharoitlariga bog'liq holda, xusan, iqlim sharoitlariga va bunday mashinalarni o'rnatish tajribasiga ko'ra amalga oshiriladi.

Jihozni o'rnatish ishlarini korxona bilan maxsus montaj tashkiloti o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida yoki ushbu korxona o'rnatish bo'limi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Ishning qurilish qismini maxsus qurilish tashkilotlari yoki sexlar uch bosqichda bajaradi:

1) uskunalarni montaj qilishni boshlashdan oldin qurilish obyekti uchun ajratilgan (uchastkaning vertikal va gorizontal loyihalash, yo'llar, poydevorlar va tayanchlar, uzatuvchi quvurlar, omborlar, montaj maydonlari, quruvchilar va montajchilar uchun maishiy xonalar va h.);

2) uskunalarni montaj qilish bilan bir vaqtida (bino va inshootlarni qurish, pardozlash ishlarini va h.);

3) asosiy montaj ishlarini tugatilgandan so'ng (korxona ichki va tashqi hududini obodonlashtirish ishlarini).

Uskunalarni montaj qilish deganda uskunani ish holatiga keltirish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar majmuasi tushuniladi.

Buning uchun montaj qilinayotgan uskuna butkul yig‘ib bo‘lingan, loyiha holatida qurilgan va yagona texnologik tizimga tegishli kommunikatsiyalar yordamida ulangan bo‘lishi kerak.

Uskunalar va kommunikatsiyalarning turlicha ekanligi montajni maxsuslashtirish – ish sifatini va ishlab chiqarishni ko‘tarilishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirda texnologik va yordamchi uskunalar umumiyligi montaj ishlaridan maxsus montaj ishlari (elektr va issiqlik, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish vositalari va nazorat-o‘lchov asboblari tizimi montaji, korroziyaga qarshi himoya, uskunalar yuzasini issiqlik izolyatsion material bilan o‘rash va h.) ajratib olinadi.

Texnologik uskunalarning montaji ishlab turgan sanoat korxonalarini rekonstruksiyalash va yangilarini qurish, shuningdek, ishga yaroqsiz bo‘lib qolgan uskunalarini yangi va samarador qurilmalariga almashtirish bilan amalga oshiriladi. Oxirgi ikki holatda demontaj – montajga teskari bo‘lgan jarayon eng birinchisi bo‘lib hisoblanadi.

Montaj va demontajning texnologik elementlarini o‘xshashligiga qaramasdan, alohida xavfsizlik choralarini ta’minalash zarurati va ishlarning ketma-ketligi bilan bog‘liq bo‘lgan ekspluatatsiya jarayonida uskunalar demontajining ba’zi bir xususiyatlarini hisobga olish zarurdir.

Korxonalar uskunalarini loyihalash, qurilish va ekspluatatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan montaj va demontaj ishlarini, hamda ilg‘or usullarini va ularni qo’llash usullarining tasnifini bilish, har bir mexanik uchun zaruriy ish bo‘lib hisoblanadi.

Sanoat korxonasini ishga tushirish uchun loyihada tasdiqlangan, barcha qurilish-montaj ishlari oxiriga yetgan bo‘lishi, shuningdek, ushbu loyihani amalga oshirishda yuzaga kelgan muammolar hal qilingan bo‘lishi kerak.

Har qanday uskunaning doimiy ishga yaroqliligidagi uni to‘g‘ri ekspluatatsiya qilish va o‘z vaqtida, sifatli ta’mirlash orqali erishiladi.

**Ta’mirlashlararo** (yoki ta’mirlash) sikli deb, bir kapital ta’mirlashdan keyingi kapital ta’mirlashgacha bo‘lgan vaqtga aytildi. Bu vaqt tarkibiga rejaviy ta’mirlashning hamma ko‘rinishlaridagi uskunalarning ishi va turib qolish holatlari ham kiradi.

Asosiy uskunalarning ta’mirlash siklining davomiyligi ko‘pgina hollarda yagona tarmoqli me’yor normativlar bilan aniqlanadi.

Yangi yoki ta’mirlangan jihozlar to‘g‘risidagi dalolatnoma qabul qiluvchi komissiyasi tomonidan nuqson aniqlangan paytdan boshlab tuziladi va quyidagi ma'lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak: iste’molchi korxonaning nomi, uning pochta va temir yo‘l manzillari, telefon, faks va iste’molchi bilan boshqa aloqa vositalari; ishlab chiqaruvchi yoki ta’mirlash kompaniyasining nomi, pochta manzili va boshqa rekvizitlari; uskunaning yoki singan yig‘ish birligining nomi va markasi; zavod raqami; iste’molchi tomonidan uskunani jo‘natish va qabul qilish sanasi, uskunani ishga tushirish sanasi; komissyaning fikriga ko‘ra, aniqlangan kamchilikning tasnifi, sabablari va uni bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan texnik ta’sir; ishlab chiqaruvchi yoki ta’mirlash korxonasi hisobidan iste’molchi tomonidan nuqsonni bartaraf etish imkoniyati bo‘yicha takliflar. Bunday dalolatnoma iste’molchi korxona rahbari va qabul komissiyasi a’zolari tomonidan imzolanadi. Uskunani qabul qilishda aniqlangan nuqsonlar ishlab chiqaruvchi yoki ta’mirlash korxonasi tomonidan bartaraf etiladi.

Agar jihoz boshqa korxonadan kelgan bo'lsa, texnik holati to'g'risidagi hisobotda qo'shimcha ravishda uning ish boshlaganidan beri ishlagan vaqt, necha marta kapital ta'mirlanganligi va joriy ta'mirlanganligi, oxirgi ta'mirlash vaqt va alohida birliklar va jihozlarning texnik holati ko'rsatilgan.

Tekshiruv dalolatnomasi, transport va boshqa hujjatlar asosida buxgalteriya asbob-uskunalarini korxona balansiga qo'yadi, ish haqi fondiga kiritadi va unga inventar raqamini beradi. Mashinaning blankida (pasportida) uning korxonaga kelishi va buyurtmaning sanasi va raqami ko'rsatilgan haydovchini tayinlash to'g'risidagi yozuvlar tuziladi. Inventar raqami mashinaga komissiya tomonidan qabul qilingan kundan boshlab besh kun ichida beriladi. Bunday holda, raqam bo'yoq bilan qo'llaniladi.

Inventar raqamini olgandan so'ng, yuk ko'taruvchi mashinalar va bosimli idishlar (kompressorlar, resiver (qabul qiluvchi)lar, bug ' qozonlari va boshqalar) foydalanishga topshirilgunga qadar Davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlarida ro'yxatidan o'tkazilishi kerak.

### **Nazorat savollari**

1. Burg'ilash va neft konlarini ishlatishga tayyorgarlik haqida ma'lumot bering?
2. Jihozlarni montaj qilishga nimalar kiradi?
3. Demontaj qilish tartibi qanday tartibda tayyorlanadi?

## 4- Ma’ruza

### Mavzu: Jihozlarni ishlatish va ularni ishnni ta’hlil qilish

#### **Reja:**

- 4.1. Qurilmalarni ishlatish samadorligi va ishlash rejimi.
- 4.2. O‘zgartirilishi mumkin bo’lgan kunlik va yillik uskunalarining ishlash rejimlari.
- 4.3. Ishlab chiqarish samaradorligi va mashina ishlab chiqarish darajasi.
- 4.4. Uskunalarini ishlatish qiymati. Uskunalarini ishini ta’hlil qilish.

#### **4.1. Qurilmalarni ishlatish samadorligi va ishlash rejimi.**

Jihozlarni ishlatish davomida uning texnik ko’rsatkichlari o’zgaradi: Ish unumdarligi kamayadi, iste’mol quvvati ortadi, ayrim detal va mexanizmlar ish aniqligi kamayadi. Jihozni doimo ishga yaroqli holatda ushlab turish uchun ularni o’z vaqtida ta’mirlab turish lozim. Shuni ta’kidlash lozimki, ta’mirlashni haddan tashqari erta yoki kech amalga oshirish ham maqsadga muvofiq emas. Ta’mirlashdan so’ng jihozning dastlabki ish parametrlari tiklanishi lozim.

Ta’mirlash texnologik jarayoni quyidagi operatsiyalarni o’z ichiga oladi: tashqi kurik va mashinaning texnik holatini aniq lash; uni tarkibiy qismlarga ajratish; yuvish va tozalash; nuq sonlash va saralash; nuqsonlar ryuxatini tuzish; ta’mirlash; yig‘ish; sozlash va ishga tayyorlash, sinovdan o’tkazish.

#### **4.2. O‘zgartirilishi mumkin bo’lgan kunlik va yillik uskunalarining ishlash rejimlari.**

Jihozni ta’mirlashga tayyorlash tashkiliy va texnik tadbirdardan iborat.

Tashkiliy tadbirdarga ta’mirlash murakkabligiga qarab, brigada tarkibini aniqlash; asosiy va qo’shimcha materiallarga buyurtma tayyorlash; sexlarni ta’mirlashning boshlanish vaqtini va davomiyligi haqida ogohlantirish; yeyilgan detallarni tiklash usullarini aniqlash; yangi detallar tayyorlash; ta’mirlash ishlarini amalga oshirish uchun vositalarni tanlash.

Texnik tadbirdarga chizma va sxemalarni o’rganish; kerakli instrument va moslamalarni, yuk ko’tarish va tashish vositalarini, ehtiyoj qismlar va materiallarni tayyorlash kiradi.

Ta’mir oldi davrida bosh yoki sex mexanigi mashinaning umumiyligi texnik holatini aniqlash maqsadida tashqi kurik, mashinada ishlovchi operator va appratchilar bilan so’rov o’tkazish, mashinaning ishlashini eshitib kurish, detalning isishi, jihozning ish jurnalini o’rganish yo’li bilan kuzatuv o’tkazadi.

Tashqi kurik alohida detalning yeyilish darajasini aniqlash, ularda yoriq va tirnalishlar, bolt, gayka, vint, shayba, shplintlar mavjudligini, rezbalar yaroqliliginini, singan, egilgan qismlar mavjudligini aniqlash imkonini beradi.

Harakatlanadigan detallar holatini o'rganish uchun himoya va saqlanish qurilmalari olib tashlanadi, zazor, ilashma, birikmalarning holati tekshiriladi.

Apparatchi va operatorlar so'rovini o'tkazish bilan uni ishlatalishning turli bosqichlarida ishga tushirish, to'xtatish, turli tezlik va yuklamalarda mashina texnik holati, ish aniqligi, nosozligi aniqlanadi.

Ushlab ko'rganda qo'l qo'ymasa ( $70^{\circ}\text{C}$  gacha), detal normal ishlayapti. Bunda albatta mashina to'xtatilgan bo'lishi lozim. Shovqining xarakteriga ko'ra tishli g'ildirak, podshipnik, vtulkalar holati haqida xulosa qilish mumkin.

Mashinaning vibratsiya bilan ishlayotganini ham ushlab kurish yo'li bilan aniqlash mumkin. Aylanuvchi qismlar muvozanati buzilsa, mashinaning fundamentdagi holati susaysa, zo'riqish bilan ishlasa, vibratsiya kuchayadi.

#### **4.3. Ishlab chiqarish samaradorligi va mashina ishlab chiqarish darajasi.**

Jihozni tasdiqlangan oylik reja grafik asosida to'xtatish va ta'mirga topshirish sex boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi. Ta'mirga 2-3 kun qolganda ishchi - xodimlar mashinani to'xtatib, yuvib tozalaydilar. So'ngra tok manbaidan uziladi, elektroshitdan saqlagichlar olinadi, «Ehtiyot bo'ling, odamlar ishlayapti!» mazmunidagi yozuv osiladi, mashina quvurlardan ajratiladi.

Kurik va kichik ta'mirda aniqlangan nuqsonlar, o'rta va kapital ta'mirga muhtoj detallarning nuqsonlar ryuxati tuziladi. So'ngra omborda bo'limgan detallarni tayyorlash buyurtmasi tuziladi. Mavjud detallar mexanik tomonidan ombordan olinadi.

Dastlab mashina tuzilishi mukammal o'rganildi, uni detallarga ajratish ketma - ketligi aniqlanadi.

Umumiy qoidalar quyidagilardan iborat:

- ajratishda shunday instrument va moslamalardan foydalanish lozimki, ulardan foydalanish yaroqli detallarni ishdan chiqarmas;
- avval alohida guruh va yig'ma birliklar ajratiladi, so'ngra ular alohida detallarga ajratiladi. Qiyin ajraladigan detallarni zo'riqtirmasdan, ehtiyyot bo'lib ajratish lozim;
- yig'ishni osonlashtirish uchun detallarni birikmadagi joylashuvini eslab qolish, ajratish ketma - ketligida yumshoq latta yoki yog'och ustiga joylashtirish, uyib tashlamaslik lozim;
- detalga bolg'a bilan uning ustiga yog'och yoki metalldan tayyorlangan maxsus jismlarni qo'yib zarb berish.
- bolt gayka, shaybalarni ajratgandan so'ng, yana o'z teshiklariga burab qo'yish, bir nechta bir xil detallarni simga o'tkazib bog'lab qo'yish.
- yirik detallarni ta'mirlayotgan jihoz yoniga tokchalarga o'rnatish, uzoq saqlanadigan bo'lsa moylash.

Bir nechta bolt yoki shpilka bilan mahkamlangan yig'ma birlikni ajratishda, dastlab ularning barchasini bo'shatish, so'ngra birin-ketin ochib olish lozim.

Gayka qiyinchilik bilan buralsa, gaykaning ochilish tomoniga qarab bolg'a bilan ohista urish, 20-30 minut davomida kerosin bilan ho'llab qo'yish, kavsharlash lampasi yoki gaz gorelkasi bilan isitish lozim.

Uzilgan shpilka yoki vintni ajratish uchun dastlab unda parma yordamida teshik teshiladi va teshikka uch qirrali sterjen kiritilib burab ochiladi.

Agar singan bo'lak teshikdan chiqib turgan bo'lsa, undan yoriq ochiladi va otvertka bilan burab ochiladi.

Shkiv, tishli g‘ildirak va yulduzchalar mexanik yoki gidravlik syemniklar yordamida ochiladi. Syomnik bo‘lmanan taqdirda ularga bolg‘a yordamida yog‘och bo‘laklari orqali asta urib chiqariladi va so‘ngra passatij yoki shplintader yordamidan shponkalar chiqarib olinadi.

### **Detallarni nuqsonlash va saralash**

Ajratilgan detallar tozalanadi va yuviladi. Iflos detallar 0,5-1 soat davomida kerosinda ho‘llab qo‘yiladi, so‘ng shyotkalar yordamida tozalanadi.

Bunda ikki idishdan foydalangan ma’qul: dastlab bir idishda qisman yuvib tozalangan detallni, so‘ngra ikkinchi idishda yuvgan ma’q ul.

Yuvishda kerosin, 80° C isitilgan kalsiy yoki kaustik sodda eritmalaridan foydalaniladi. Yuvilgan detallar artiladi.

Nuqsonlarni aniqlashda tabiiy kuzatish, lupa orqali kuzatish, detal o‘lchamlarini o‘lhash usullaridan foydalaniladi.

Detal uchun tiklash kartasi, mashina uchun nuqsonlar ryuxati tuziladi. Ryuxatda detallar ajratish ketma-ketligida yoziladi.

Kurikdan o‘tkazish va o‘lhashdan keyin detallar uch guruhga saralanadi: yaroqli, tiklanishi lozim va yaroq siz detallar guruhlari. Yaroqli detallarga oq rangli, ta’mirlanadigan detallarga -yashil yoki sariq rangli, yaroqsizlarga qizil rangli belgilar qo‘yiladi. Yig‘ishda boyoq benzin yoki atseton bilan yuvib tashlanadi.

Ta’mirlash yeyilgan barcha detal va yig‘ma birliklarni yangisiga almashtirish yoki texnik shartlarda ko‘rsatilgan o‘lchamlarigacha tiklashdan iborat. Tiklash vaqt va harajatlari ushbu detalning yangisini tayyorlash vaqt va harajatlaridan kam bo‘lgandangina ularni tiklash tavsiya qilinadi. Odatda tayyorlash qiyin detallar tiklanmaydi. Tiklangan detallar sifati tekshirilib, so‘ngra yig‘ishga kirishiladi.

### **Yig‘ish texnologik jarayoni**

Yig‘ish jarayoni juda mas’uliyatli operatsiya bo‘lib, extiyotsiz yig‘ish detallarni tiklash natijalarini yo‘qqa chiqarishi mumkin. Undan tashqari yig‘ish sifatining pastligi mashinaning foydalanish samaradorligining, uning F.I.K.ning va xizmat muddatining kamayishiga, iste’mol quvvatining ortishiga, sifatsiz mahsulot chiqarish va avariylarga olib kelishi mumkin.

Yig‘ish texnologik jarayoni - detal, yig‘ma birlik va guruhlarni ma’lum ketma-ketlik asosida birlashtirish operatsiyalari yig‘indisidir. Bu jarayon ikki qismdan iborat: tugunli va umumi yig‘ish. Tugunli yig‘ishda detallar tugunlariga yig‘iladi. Umumi yig‘ishda detal, yig‘ma birlik guruhlardan to’liq mashina yig‘iladi.

Tugunli va umumi yig‘ish o’tishlarga bo‘linuvchi operatsiyalardan iborat. Yig‘ish operatsiyasi deb bir yig‘ma birlik bilan bir ish joyida bir ishchi tomonidan amalga oshiriladigan yig‘ish texnologik jarayonining bir qismiga aytildi. Bir instrument yordamida ma’lum birikmada bajariladigan operatsiya qismiga o’tish deyiladi. Masalan; qotirilgan nakladkali kalodkani separator markazdan qochma friksion muftasining diskini o‘qiga o’rnatish operatsiyasi uchta o’tishdan iborat. Kolodkani o‘qqa o’rnatish, o‘qqa shaybani o’rnatish va o‘qqa shplintni o’rnatish.

Mashina tuzilishining murakkabligiga ko‘ra yig‘ishning ketma-ket yoki parallel usuli qo‘llaniladi.

Ketma-ket usulda detallarni ketma-ket yig‘ma birliklarga yig‘ib, mashinaga o’rnatiladi. Oddiy mashinalar nasos, separatorlar shu usulda yig‘iladi.

Parallel usulda bir vaqtida bir nechta yig‘ma birliklar yig‘iladi.

Bir detalning ikkinchisi ichiga kirishi bilan birlashtirilishiga birikish deyiladi. Bir detal ikkinchisiga nisbatan harakatlanmasa, birikish qo‘zg‘almas, aks holda qo‘zg‘aluvchan bo’ladi. Bunda tashqari birikmalar ajraluvchan va ajralmas bo’lishi mumkin.

Birlikni va detallarni zararlantirmasdan to’liq ajratish mumkin býlsa, bunday birikmalar ajaraluvchan deyiladi.

Zamonaviy mashinalarning 85% gacha birliklari ajraluvchandir. Qo‘zg‘almas ajraluvchan birikmalarga rezbali, shponkali va ponali birikmalar misol bo’ladi. Qo‘zg‘aluvchan ajraluvchi birikmalarga val bo’ynining sirpanish podshipniki bilan, tishli uzatmalar g‘ildiraklarining tishlari misol býladi.

Ajralmas qo‘zg‘almas birikmalarga payvand, kavsharlangan, yelimlangan, razvalsovkalangan, presslangan, to’mtoqlangan (zaklep kali) birikmalar misol bo’ladi. Qo‘zg‘aluvchan ajralmas birikmalarga radial sharikli podshipniklar sharik va halqalari birikmalari misol bo’ladi.

Yig‘ish ishlari yakunlagach, mashinani tashqi kurikdan o’tkazib, quyidagilar tekshiriladi:

- barcha detal va yig‘ma birikmalarining mavjudligi, birikish mustahkamligi;
- birikishlar, qopqoqlar, býshatish tiqinlari va moy ko’rsatkichlari orqali moy sizib chiqmasligi;
- aylanadigan detallar: mufta, tasma, zanjir ochiq tishli uzatmalardagi himoya vositalarining mavjudligi;
- ishq alanish sirtlarining moylanganligi;
- podshipnik, salniklarning zichligi;
- vallar, muftali birikmalarining to’g‘riligi va ishonchliligi, shponka va vintlar holati, o’qdoshliklar.

### **Ajratish va yig‘ishning texnik hujjatlari.**

Murakkab býlmagan mashinalarni ajratish va yig‘ish ketma-ketligini slesar yig‘ish chizmalari, kýrsatmalari bo‘yicha mustaqil aniqlab olish mumkin. Murakkab mashinalarni ajratish va yig‘ish uchun yig‘ma chizma ajratish (yig‘ish) ning texnologik sxemasi, ajratish (yig‘ish)ning texnologik kartasidan iborat texnik xujjalr tuziladi:

Sxemada yig‘ish elementlarini biriktirish ketma-ketligi shartli tasvirlanadi. Sxemada ajratish (yig‘ish) jarayoni yo‘g‘on to’g‘ri chiziq bilan tasvirlanadi va uning mos joylariga detal va yig‘ma birlıklarni belgilovchi to’g‘ri to’rt burchaklar ingichka chiziqlar bilan ulanadi. To’g‘ri chiziq ikki qismga ajratilgan. Yuqori qismida detal yoki yig‘ma birlik nomini bildiruvchi raqam va uning nomi pastki qismida - bir xil nomli detallar soni va tayyorlovchi zavod katalogi yoki yo’riqnomasi bo‘yicha belgilanishi ko’rsatiladi.

Agar katalogda detal belgilanishi ko’rsatilmagan bo’lsa, S B yozuvi qo‘yiladi.

Sxema chapdan o’ngga qarab quriladi. Sxema boshida asos detal (disk) shartli belgilangan ko’rsatiladi. Opersiyalar bajarilish ketma-ketligi ko’rsatkichlar bilan belgilanadi. Alovida detallar shartli belgisi -yig‘ish sxemasi yo’nalish bo‘yicha chapda, yig‘ma birlıklarniki o’ngda ko’rsatiladi. Rasmida detallar yig‘ish chizig‘ining yuqorisida, yig‘ma birliklar pastda tasvirlangan.

Chiziqning oxirida yig‘ilgan mashina shartli belgisi tasvirlanadi.

Ajratish (yig‘ish) texnologik kartasi aksar hollarda muayyan yig‘ma birlik uchun tuziladi. Kartaning yuqorisida yig‘ma birlikning ajratiladigan detallari tartib raqamlari ko’rsatilagan yig‘ma chizmasi keltiriladi. Chizmadan pastda karta jadvalida ajratish (yig‘ish) ketma-ketligida operatsiya va o’tishning nomi va raqami, qo’llaniladigan instrument va moslama, ajratish (yig‘ish) ning texnik talablari, ishchi razryadi va kasbi, har bir operatsiyaning ish hajmi ko’rsatiladi.

### **Mashina va qurilmalarni ishlatish samadorligi va ishlash rejimi.**

Har qanday uskunalar alohida elementlardan tuzilgan bo‘lib, ular texnikada bloklar, qismlar va detallar deb ataladi. Birlamchi element detal bo‘lib, uning xarakterli belgisi – unda hech qanday birikmalar yo‘qdir. Uskunalarning boshqa elementlaridan alohida qismlarga ajratilishi yoki yig‘ilishi mumkin bo‘lgan ikki yoki undan ortiq detallarning ajratgichli yoki ajratgichsiz birikmalari qismlar deb ataladi. Yirik qismlarni montaj qilish texnikasida bloklar deb atash qabul qilingan.

Uskunalarni qismlarga ajratish va yig‘ish texnologiyasini ishlab chiqish uchun shartli ravishda ularni guruhlarga va guruhchalarga bo‘linadi. Bevosita uskuna tarkibiga kiruvchi har bir guruh, ikki va undan ortiq guruhchalarga bo‘linadi. Guruhchalar yuqori va quyi tartibli (ikkinci, uchinchi va h.) guruhchalarga bo‘linadi. Yuqori tartibli guruhchalar – quyi tartibli guruhchalardan iborat bo‘ladi, quyi tartiblilari esa, o‘z navbatida qismlardan tuzilgan bo‘ladi. Uskunalarni shartli ravishda bloklar, guruhlar, guruhchalar va qismlarga bo‘linishi, ya’ni ularni differensiatsiyasi, ta’mirlash ishlarining hajmi va konstruksiyasining murakkabligiga bog‘liq.

Uskunalarni qismlarga ajratish va yig‘ish vaqtida yirik hadlarga ajratish prinsipini qo‘llash, ish frontini sezilarli darajada kengaytirish, ularning mehnat hajmini kamaytirish, ta’mirlash ishlariga ketadigan vaqtini qisqartirish, shuningdek, umumiy mehnat sarfini kamaytirish imkonini beradi.

Ko‘pgina holatlarda qismlarga ajratish va yig‘ish teskari ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Agar qismlarga ajratish paytida uskunalar avval guruhlarga bo‘linib, keyin yuqori va quyi tartibli guruhchalarga, qismlarga va oxiri detallarga bo‘linsa, yig‘ish qism detallarini kompanovka qilishdan boshlanib, tayyor guruhnini uskunaga (baza elementiga) o‘rnatish bilan tugaydi.

Ta’mirlashning sanoat usullari, qismlarga ajratish va yig‘ishning to‘liq texnologik sxemalarini ishlab chiqishni, yig‘ish – qismlarga bo‘lish stendlarini barpo etish, maxsus moslamalarni va o‘lchov-nazorat asboblarini ishlab chiqishni talab qiladi. Qismlarga bo‘lish va yig‘ishning texnologik sxemalari alohida qismlarni va butun uskunani bo‘linish yoki jamlanish tartibini ko’rsatadi, shuningdek, butun operatsiyaning ketma-ketligini ham ko’rsatadi. Ular operatsiyalarning tarkibini bayon etuvchi yozuvlar bilan ta’minlanadi.

Yig‘ish texnologiyasini ishlab chiqishda avvalo, ushbu uskunani ta’mirlash uchun qanday yig‘ish usuli ishlatilayotganligini hisobga olish kerak: butunlay o‘zaro almashinish usuli, butunlay bo‘lmagan o‘zaro almashinish yoki individual moslash. Birinchi usul mukammalroq usuldir, lekin, yuqori darajada aniqlikni va zahira qismlarini katta parkini talab qiladi. Ikkinci usul, qo‘l ostidagi zahira qismlari parkidan detallarni tanlab olishni ko‘zda tutadi. Individual prigonka usuli o‘z ichiga zarur bo‘lgan o‘lchamdagи detallarni olish uchun meyoriga yetkazilgan slesarlik va hattoki, dastgohli ishlarni ham oladi. Yirik uskunalar bo‘lgan holatda turli qismlarni yig‘ish yuqoridagi uchala usullar bilan amalga oshiriladi.

Uskunalarni qismlarga ajratish va yig‘ish slesarlar brigadasi tomonidan yoki bir vaqtning o‘zida bir necha brigadalar tomonidan ta’mirlash bazalari ustaxonalarida yoki bevosita texnologik qurilmalarda o‘tkaziladi (ta’mirlanayotgan uskuna o‘rnatilgan joylarda). Ta’mirlash brigadalaridagi ishchilar soni shu shart bilan tanlanadiki, ular ish joylarida turganlarida bir-birlariga halaqit bermasınlar. Ish hajmi ta’mirlash turiga bog‘liq. Kapital ta’mirlashda uskunalar baza elementiga qadar qismlarga ajratiladi, va detallarni qayta tiklanib, keyin va almashtirilgandan keyin yig‘ish ishlari shu bazadan boshlab bajariladi.

Agar qismlar ikki yoki undan ortiq bir xildagi detallardan tuzilgan bo‘lsa, yig‘ish vaqtida ularni almashtirib yubormaslik uchun va bu bilan tutashmalar sifatini pasaytirmaslik uchun, detallarning ustki tomoniga belgilar qo‘yib qo‘yiladi. Belgilarni yana bir detalni ikkinchisiga nisbatan aniq mo‘ljallab olish uchun ham qo‘yiladi; olib qo‘yilayotgan detallarni yuqori, past, o‘ng va chap tomonlarini ko‘rsatib qo‘yiladi.

Qismlarga ajratish va yig‘ish texnologiyasi uskunalarni ta’mirlashning umumiy texnologiyasi tarkibiga kiradi, bu texnologiya ushbu uskuna konstruksiyasiga bog‘liq ravishda ishlab chiqiladi. Bulardan kelib chiqib, barcha turdagи uskunalar uchun operatsiyalarning aniq bir ketma-ketligini sanab o‘tish mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi. Quyida ko‘p uchraydigan ajratgich birikmalarni qismlarga ajratish va yig‘ishning texnologik xususiyatlari keltirilgan.

**Rezbali birikmalar.** Rezbali birikmalar mashina va qurilmalar konstruksiyalaridagi ajratgich birikmalarning keng tarqalgan turi hisoblanadi. Shuning uchun ular zimmasiga yig‘ish va qismlarga ajratishning asosiy bo‘limlari yuklanadi.

Kimyo va neftni qayta ishslash zavodlarining uskunalarida asosan silindrik rezbali birikmalar qo‘llaniladi, ular mahkamlash rezbali va maxsus rezbali birikmalarga bo‘linadi. Mahkamlash rezbalariga – asosiy va mayda rezbalar kiradi, maxsus rezbalarga – trubali, trapetsiyali, to‘g‘riburchakli, tayanchli, dumaloq va h. kiradi.

Rezbali birikmalar tashqi, ichki va o‘rta rezba diametrлari, rezba qadami, rezba profili va uni hosil qiluvchi burchaklari, profilining ishchi balandligi (juft profillar bir-biriga tegib turgan tomonlarining radial o‘lchangan eng katta balandligi), vint chizig‘ining ko‘tarilish burchagi, burab ajratish uzunligi (ya’ni, bo‘ylama o‘qli o‘lchangan tutashuvchi detallarning bir-biriga tegib turgan yuzasi uzunligi) va boshqa o‘lchamlar bilan xarakterlanadi.

Rezbali birikmalar barcha o‘lchamlarga belgilab qo‘yilgan joizlikka qat’iy rioya qilingan holda tayyorlanishi kerak. Mas’uliyatli mashina va qurilmalar pasportlarida yoki yo‘riqnomalarida montaj va demontajning xususiyatlari ko‘rsatilishi shart. Shuningdek, rezbali birikmalarni tortib bog‘lash kuchlanishi haqida ma’lumotlar ham ko‘rsatilishi shart.

**Tortib bog‘lash kuchlanishi.** Biriktirilayotgan detallarning tutashuvchi yuzalaridagi rezbali birikmalarni tortib bog‘lashda, birikmalarning germetikligini va zichligini ta’minlovchi, minimal bosim yuzaga keltirilishi kerak. Normal tortib bog‘lash rezbali birikmaning kuchlanishiga ta’sir etayotgan asosiy o‘zgaruvchan kuchlanish ta’sirini kamaytirishni ta’minlab berishi kerak.

Kattaligi bo‘yicha o‘zgaruvchan kuchlar bilan yuklangan rezbali birikmalarni, tashqi yuklamadan birmuncha yuqoriroq bo‘lgan kattalikkacha tortib bog‘lash kerak. Tortib bog‘lash kuchlanishini quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$\sigma_3 = K \cdot \sigma_o \quad (4.1)$$

bu yerda  $\sigma_3$  - tortib bog'lash kuchlanishi, MPa;  $\sigma_o = P/F$  – tashqi yuklama ta'sirida hosil bo'lgan rezbadagi nominal kuchlanish, MPa; R – boltni cho'zuvchi ichki kuch, MN;  $F = \pi d_1^2/4$  – rezba bo'y lab ko'ndalang kesim maydoni,  $m^2$ ; K – birikma konsentratsiyasiga bog'liq bo'lgan (yumshoq qistirmali planetsli birikmalar uchun  $K=1,3-2,5$ ; po'lat, shakldor qistirma uchun  $K=2-3,5$ ; po'lat yassi qistirma uchun  $K=3-5$ ) tortib bog'lash koeffitsiyenti.

Tortib bog'lash kuchlanishi ba'zi chegaralardan ortmasligi kerak, bu chegaralar quyidagi nisbatdan aniqlanadi

$$\sigma_3 = \frac{4kP}{\pi d_1^2} \leq 0,8\sigma_m \quad (4.2.)$$

bu yerda  $\sigma_t$  – material oquvchanlik chegarasi, MPa.

Yig'ish vaqtida tortib bog'lash kuchlanishi tortib bog'lash momenti orqali yuzaga keltiriladi, u gaykali kalit sopining uzunligi bo'yicha va unga berilayotgan kuch bo'yicha aniqlanadi. Asosiy metrli rezbali bolt va shpilkalar uchun joiz bo'lgan tortib bog'lash momentining  $\sigma_3 = 0,4\sigma_T$  shartidan topilgan taxminiy qiymatlari 1-1-jadvalda keltirilgan.


4.1 jadval

### Bolt va shpilkalar uchun ruxsat etilgan tortib bog'lash momentlarining taxminiy qiymatlari

Rezba diametri, mm	Po'lat markalaridan bolt shpilkalari uchun		
	tortib bog'lash momenti		
	Ct. 3	Ct. 45	40X
6	0,022	0,035	0,070
8	0,054	0,086	0,172
10	0,110	0,170	0,340
12	0,190	0,300	0,600
14	0,300	0,480	0,960
16	0,480	0,770	1,500
18	0,660	1,000	2,000
20	0,950	1,500	3,000
22	1,300	2,100	4,200
24	1,600	2,600	5,200
27	2,400	3,800	7,600
30	3,200	5,200	10,400
36	5,800	9,200	18,400

Mas'uliyatli rezbali birikmalar uchun tortib bog'lash kuchlanishini bolt uzaytirilishini o'lhash, qotirilgan boltga nisbatan gayka aylanish burchagini o'lhash, burash oxirida o'sadigan aylanish momentini o'lhash orqali nazorat qilish mumkin. Boshida sanab o'tilgan ikki holat uchun maxsus asboblardan foydalilanadi – bular – uzunlik va burchak o'lchagichlardir. Ularning ko'rsatkichlari formulalar orqali burovchi moment yoki tortib bog'lash kuchlari (kuchlanishi)ni hisoblash imkonini beradi. Oxirgi holatda esa, bevosita burovchi momentni ko'rsatuvchi tarirovka kalitlar ishlatiladi.


**Boltlar va shpilkalar.** Detallarni tutashtirish ko'p hollarda boltlar va shpilkalar bilan amalga oshiriladi. Boltlar oddiy va mas'uliyatli bolt va shpilkalarga bo'linadi. Oddiy boltlar ko'ndalang kuchlar ta'siriga duch kelmasligi kerak. Shuning uchun yig'ish vaqtida boltlarni kesadigan yuklamalardan bo'shatishda mo'ljallangan detallarni o'rnatish zarur (1.1a-rasm). Mas'uliyatli rezbali birikmalarning shakllari va o'lchamlari (1.1b-rasm) har xil bo'lishi mumkin, shuning uchun yig'ish vaqtida chizmada ko'rsatilgan barcha o'lchamlarning mos kelishi va talab etilayotgan kiyg'izishga amal qilishga e'tibor berish zarur.



**4.1- rasm. Boltlar.**

- a – oddiy; b – mas'uliyatli konstruksiyalar uchun;
- 1 – mustahkamlovchi vtulka; 2,3 – bo'shatuvchi elementlar;
- 4 – cheklagichli kallak; 5 – tojsimon gayka; 6 – burt.

1.2-rasmida oddiy va bir necha maxsus shpilkalarning konstruksiyalari keltirilgan. Yig'ish vaqtida o'z-o'zidan burab chiqishga yo'l qo'ymaslik uchun, shpilkani teshikgacha kirishiga alohida e'tibor berish zarur. Shpilkani teshikgacha kiydirishning quyidagi ko'rinishlari mavjud: 1 – rezbaning ochishi bo'yicha (shpilka, undagi bor rezbaning oxirigacha buraladi); 2 – o'rta diametr bo'ylab taranglash yordamida (taranglash qiymati 0,01-0,06 mm chegaralarida); 3 – burt yordamida (shpilka qandaydir kuch bilan burtga cheklagichigacha buraladi); 4 – teshik ostida cheklagich bilan (shpilka teshik ostiga cheklagichgacha buraladi).



**4.2- rasm. Shpilkalar.**


- a – oddiy, rezbaning oxirigacha aylantiriladigan;
- b – o'rta qismida yo'nilgan chuqurchalii; v,g – maxsus; d – burtli.

O‘z-o‘zidan buralib chiqish va uning oldini olish vositalari: rezbali birikmalar o‘zgaruvchan va dinamik yuklamalar ta’siridan o‘z-o‘zidan buralib chiqib qolishi mumkin. O‘z-o‘zidan buralib chiqish oldini olish uchun maxsus vositalar qo‘llaniladi. Ushbu vositalarni yig‘ish vaqtida qat’iy nazorat qilish lozim. Ko‘pincha, kontrgaykalar, tojsimon gaykalar, prujinali va to‘xtatgich shaybalar ishlataladi (1.3- rasm).

**Kontrgayka** – rezbada qo‘srimcha ishqalanish kuchini yuzaga keltiradi, bu esa o‘z-o‘zidan burab chiqarilishni oldini olish imkonini beradi. Kontrgayka kichik kuch bilan tortiladi.

**Tojsimon gayka** – 6-10 ta qirqimli bo‘lib, ularga ajraluvchi shplint kiradi va shplint bolt yoki shpilka teshigiga kiygiziladi. Gohida oddiy shakldagi gayka qirqimli qilib yasaladi (bunday holatda u katta balandlikka ega bo‘ladi).

**Shplint** – yarim aylana simdan yasalgan, egilgan sterjen bo‘lib, rezbada tojsimon gaykaning aylanishiga halaqit beradi. Uni teshiklarga bolg‘a bilan cheklagichlar yengilgina urish bilan o‘rnataladi. Shundan keyin shplintning chiqib qolgan uchlarini tomonlarga ajratilib gaykaning chekka yuzalariga zichlab qisib qo‘yiladi. Ixtiyoriy o‘lchamdagisi shplintlarni qo‘llab bo‘lmaydi: ularning uzunligi va diametri o‘sha teshiklarga mos kelishi kerak.



**4.3- rasm. O‘z-o‘zidan buralib chiqarilishni oldini oluvchi vositalar.**

a – tashqi tumshuqli to‘xtagich shayba; b – ichki va tashqi tumshuqli to‘xtagichli shayba; v – shplintli tojsimon gayka; g – prujinali shayba; d – tumshuqli shayba; ye – sozlovchi shayba; j – kontrgayka.

**Prujinali shaybalar:** kvadrat ko‘ndalang kesimli po‘lat simlardan tayyorlanadi. O‘z-o‘zidan burab chiqarilishga shaybaning mustahkamligi bois yo‘l qo‘yilmaydi, buning natijasida birikma har doim kuchlanish ostida bo‘ladi.


**To‘xtagichli shayba** ichki va tashqi tumshuqli bo‘ladi. Tumshuq detaldagi teshikka tifiladi, shayba chetini esa, gaykaning qaysidir chetiga burab qo‘yiladi. Shaybalarning yana har turli konstruksiyalari ham uchraydi.

Shuni esda tutish kerakki, 250°C dan ortiq temperaturada ishlaydigan flanetsli birikmalar uchun butun uzunligi bo‘ylab yassi kertilgan shpilkalargina qo‘llaniladi. Bu holatda boltlarni ishlatish mumkin emas, chunki ularda temperaturalar deformatsiyasidan kuchlanish, xuddi shu o‘lchamdagisi shpilkalarga qaraganda 1,4 marta

ortiq. Agar yassi kertilishni qo'llab bo'lmasa, u holda shpilkaning ishchi uchastkasida emas (odatda o'rtasidan) kertilish chuqurligida yo'niladi (4.2b- rasm).

Boltlarni, gayka va shpilkalarni qaytarib burash va burash - ko'p vaqt talab etadigan, mehnati og'ir operatsiyadir. Bu maqsadda foydalaniladigan asosiy asboblar – bu gaykali kalitlardir (4.4-rasm), ular konstruktiv shakli va ishlatalishi sohalariga qarab farqlanadi.

Oddiy gaykali kalitlar – bitta (bir jag'li) yoki ikki (ikki jag'li) gayka yoki bolt kallagi o'lchamida hisoblanadi. Kerakli o'lchamdag'i kalitlar majmuasi bo'lмаган taqdirda universal kalitlardan foydalaniladi, ularni kerakli o'lchamga keltiriladi. Qulay bo'lмаган joylarda ishlash uchun toretsli kalitlar ishlatiladi. Chegarali va tarirovkali kalitlar bolt yoki shpilkaning ruxsat etilgan chegaralardan ortiq tortib bog'lanishini yoki cho'zilishini oldini oladi. Ular prujina bilan maxsus qurilma orqali ta'minlangan bo'lib, ular, talab etilayotgan cho'zilish kuchi ortganda dastaning siljishini ta'minlaydi.



#### 4.4- rasm. Gaykali kalitlar.


a – oddiy, b – universal, v- toretsli, g – tarirovkali, d – chegarali.

Ta'mirlash texnikasida, ko'pincha gaykaburagichlar qo'llanilib, ular asbob-uskunalarni yig'ish va qismlarga ajratish jarayonini birmuncha tezlashtiradi va yengillashtiradi. Yuritmalarga qarab, gaykaburagichlar elektrik va pnevmatik gaykaburagichlarga bo'linadi. Pnevmatik gayka buragichlarni qo'llanilishi ta'mirlash uchastkasida yong'in va portlash xavfliligi sharoitlarida o'zini oqlagan. Sanoatda ishlab chiqarilayotgan elektrik yoki pnevmatik gayka buragichning har bir markasi, aniq diametr diapazonida va valdag'i aniq maksimal quvvatning o'sishiga hisoblangan. Gayka buragichlar toretsli kalitlar majmuasi bilan ta'minlangan.

Agar ekspluatatsiya vaqtida tutashuvchi detallar yuqori temperaturada, agressiv muhitda va iflosliklar, tuzlar va detal yuzasidagi qurum bosish sharoitlarida ishlasa, ajratgichli birikmalarni qismlarga bo'lish qiyinchilik tug'diradi. Bunday birikmalarni qismlarga ajratish aniq sharoitlarga bog'liq.

Qismlarga ajratilayotgan birikmalarning ushlanadigan yuzalari iflosliklardan kerosin yoki issiq suv bilan tozalanishi kerak. Ba'zi xollarda qismlarni bir qancha muddatga kerosinli vannaga tushirib qo'yiladi.

Detallarni umumlashtirish, yengil va tez-tez bolg'acha bilan urish bilan bir vaqtning o'zida boltni burab harakatlantirish orqali yengillashtiriladi. Agar cho'g'lanib ketish xavfi bo'lmasa, detallarni kavshar lampasining yoki kislorodli gaz gorelkasining alangasida qizdirish mumkin.



#### 4.5- rasm. Singan shpilkalarni chiqarib olish usullari.

a – burab chiqarish bilan, b – ekstraktor yordamida:

1 – singan shpilka, 2 – gayka, 3 – ekstraktor.

Sinib qolgan shpilkalarni detaldan quyidagi usullarda burab olinadi:

- agar shpilka detal yuzasidan chiqib turgan bo‘lsa, chiqib turgan uchidan o‘q bo‘ylab vint buragich – otvyortkaga mos qilib qirqiladi yoki sinib qolgan gayka yon yuzasiga ichki diametri bo‘ylab eritiladi, bunda avvaldan uni detaldan izolyatsiya qilinadi (4.5a-rasm);


- shpilkada teshik parmalanadi, chap rezbani kertiladi (ochiladi), keyin konus bo‘lib tugaydigan ekstraktor burab kirgiziladi; burash vaqtida ekstraktor o‘zi bilan birga shpilkani olib chiqadi (4.5b-rasm). Shpilkani parmalagich bilan avval kichik, keyin sekin-asta kattalashgan diametrlarni, to u qirindiga aylanib qolgunga qadar parmalanadi; detal teshigiga yangi rezba ochiladi, lekin bunisi nisbatan ancha katta diametrli bo‘ladi.

Guruhashgan rezbali birikmalarini yig‘ish jarayonida ketma-ket tortib bog‘lash qoidasiga rioya qilinadi: avval to‘g‘ri markazlashishi uchun barcha rezbali detallarni yig‘iladi, keyin ularni bosqichma-bosqich x sxemasi bo‘yicha tortib bog‘lanadi. Bunday tortib bog‘lash tutashmalarning qiyshayib qolishini va bir xil detallarning yuklanishi kamligi hisobiga boshqa detallarni o‘ta yuklanib ketishini oldini oladi.

Rezbali birikmalar zich bo‘lishi kerak bo‘lgan hollarda (qurilmalar va kameralar qopqoqlari, truba quvurlar birlashishi), rezbali yuzalar yig‘ilishi oldidan quruq yoki alif bilan shimdirilgan zig‘ir tolali ip bilan o‘raladi. Kesilgan yuza ham qo‘rg‘oshinli surik bilan, belila va turli ushbu muhitga turg‘un bo‘lgan laklar bilan moylanadi.

**Shponkali va shlitsali birikmalar.** Birikish xarakteriga ko‘ra shponkalar klinli va prizmatikalarga bo‘linadi.

**Klinli** (cho‘zuvchi) shponkalar ishchi qirrasi uzunligi bo‘ylab katta bo‘lmagan engashishga ega (1:100). Ularni birikayotgan detallar orasiga qoqib kirgiziladi va shu yo‘l bilan kuchlantirilgan birikma olinadi, bu birikma burovchi momentni uzatib bergani kabi, o‘qli yo‘nalishli yuklamani ham uzatib berish qobiliyatiga ega.



#### 4.6- rasm. Klinli shponkalar.

a – kallakli, b – kallaksiz, v – shponka kallagini yopish uchun qalpoqcha: 1 – qalpoqcha, 2- vint, 3 – shponka.

Klinli shponkalarni nisbatan kamroq aniqlikda xarakterlanuvchi mashinalarda qo'llaniladi. Bunga sabab, kiygizish tirqishini to'ldirish bilan birga, detal o'qini val o'qiga nisbatan siljitadi, ya'ni birikayotgan detalning qiyshayishi yuzaga keladi.

Klinli shponkalar kallakli va kallaksiz tayyorlanadi (4.6a,b-rasm). Shponkaga kallakni, bo'laklarga ajratish vaqtida uni qarama-qarshi tomonidan urib chiqarib bo'lmaydigan bo'lganda o'rnatiladi. Kallakli shponkani klin (zubilo) yordamida chiqarib olinadi. Bu klin detal va kallak oralig'iga qoqib kirgiziladi. Shuning uchun shponka kallagi yig'ilgan ko'rinishda detal yon yuzasiga hech bo'limganda shponkaning yarim balandligi miqdorida yetmasligi kerak. Kallakli shponka o'rnatilgan ochiq qolgan aylanadigan qismlar havflidir: ular xizmat ko'rsatayotgan xodimlarning kiyimlarini o'rab ketishi va jarohatga olib kelishi mumkin. Bunday holatlarda shponkani qalpoqcha bilan yopish kerak (4.6v-rasm). Qalpoqcha detal yon yuzasiga yoki valga mahkamlangan bo'ladi. Kallaksiz shponkalar aylana yon yuzasiga (to'lg'azma shponka) va yassi yon yuzaga (qoqib kirgizilgan shponka) ega bo'lishi mumkin.

Prizmatik shponkalar qotirilgan birikmalarda bo'lgani kabi sirpanuvchi birikmalarda ham tutashtiriluvchi detallarning muqarrar turg'un va yaxshi markazlashishni ta'minlaydi. Sirpanuvchan birikmalarda prizmatik shponka valga o'rnatilgan detal gupchagiga yoki valga vintlar bilan mahkamlangan bo'lishi kerak. Prizmatik shponkalarda pachoqlash deformatsiyasi o'tkaziladigan tor qirralar – ishchi bo'lib hisoblanadi.

**Shlitsli birikmalar** - prizmatik shponkalarning bir turi hisoblanadi. Shlitsli birikmalarni yig'ishda valga nisbatan gupchakning markazlashish sistemasini saqlash juda muhimdir. Vtulka qismlarga qo'yilayotgan talablarga bog'liq holda va shlitsli detallarni tayyorlash texnologik xususiyatlariga ko'ra o'rnatiladi.

Yig'ilgan shlitsli birikmalarni qo'l bilan ushlab ko'rib tekshiriladi – val va detal orasida lyuft borligi sezilmasligi kerak; harakatlanuvchi birikmalar bo'lganda valning butun uzunligi bo'ylab siljiyedigan detallarga bir xil kuch berilishi kerak.

#### **4.2. O'zgartirilishi mumkin bo'lgan kunlik va yillik uskunalarining ishlash rejimlari.**

Barcha apparatlar jarayonni tashkil qilish usuliga ko'ra davriy ishlovchi va uzlusiz ishlovchi apparatlarga bo'linadi. Davriy ishlaydigan apparatlarda ma'lum ajratilgan vaqt mobaynida muayyan miqdordagi xom-ashyo va materiallarga ishlov beriladi. Jarayon amalga oshirilgach, apparat ishdan to'xtatilib, hosil bo'lgan mahsulotlar chiqariladi. Apparatga xom ashyoning navbatdagi miqdori kiritiladi. Davriy ishlaydigan apparatlar mana shu siklda ishlaydi.

##### **Davriy ishlaydigan kolonnada rektifikatsiyalash jarayohi kechishi**

Dastlabki aralashma haydash kubiga beriladi. Kub ichiga isituvchi zmeevik joylashtirilgan bo'lib, aralashma qaynash haroratigacha isitiladi. Hosil bo'lgan bug'lar rektifikacion kolonnaning ohirgi tarelkasining pastki qismiga o'tadi. Bug' kolonna buylab ko'tarilgan sari engil uchuvchan komponent bilan to'yinib boradi. Deflegmatordan kolonnaga qaytgan bir qism distillyat flegma deb yuritiladi. Flegma (suyuq faza) kolonnaning eng yuqori tarelkasiga beriladi va pastga qarab harakat qiladi. Suyuq faza pastga harakat qilishida uz tarkibidagi engil uchuvchan komponentni bug' fazasiga beradi. Bug' va suyuq fazalarning bir necha bor uzaro kontakti natijasida bug' fazasi yuqoriga harakat qilgani sari engil uchuvchan komponent bilan to'yinib borsa,

suyuqlik esa pastga tomon harakat qilgani sari tarkibida qiyin uchuvchan komponentning miqdori oshib boradi.

Uzluksiz ishlaydigan apparatlarga doimiy ravishda xom ashyo kirib, hosil bo‘lgan mahsulotlar chiqarilib turiladi. Bu turdagи apparatlarda jarayon uzluksiz ravishda amalga oshiriladi.

Hozirda texnologik va yordamchi uskunalar umumiy montaj ishlardan maxsus montaj ishlari (elektr va issiqlik, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish vositalari va nazorat-o‘lchov asboblari tizimi montaji, korroziyaga qarshi himoya, uskunalar yuzasini issiqlik izolyatsion material bilan o‘rash va h.) ajratib olinadi.

Texnologik uskunalarning montaji ishlab turgan sanoat korxonalarini rekonstruk-siyalash va yangilarini qurish, shuningdek, ishga yaroqsiz bo‘lib qolgan uskunalarni yangi va samarador qurilmalariga almashtirish bilan amalga oshiriladi. Oxirgi ikki holatda demontaj – montajga teskari bo‘lgan jarayon eng birinchisi bo‘lib hisoblanadi.

Montaj va demontajning texnologik elementlarini o‘xshashligiga qaramasdan, alohida xavfsizlik choralarini ta’minlash zarurati va ishlarning ketma-ketligi bilan bog‘liq bo‘lgan ekspluatatsiya jarayonida uskunalar demontajining ba’zi bir xususiyatlarini hisobga olish zarurdir.

Korxonalar uskunalarini loyihalash, qurilish va ekspluatatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan montaj va demontaj ishlарini, hamda ilg‘or usullarini va ularni qo‘llash usullarining tasnifini bilish, har bir mexanik uchun zaruriy ish bo‘lib hisoblanadi.

Sanoat korxonasini ishga tushirish uchun loyihada tasdiqlangan, barcha qurilish-montaj ishlari oxiriga yetgan bo‘lishi, shuningdek, ushbu loyihani amalga oshirishda yuzaga kelgan muammolar hal qilingan bo‘lishi kerak.

Har qanday uskunaning doimiy ishga yaroqliligiga uni to‘g‘ri ekspluatatsiya qilish va o‘z vaqtida, sifatli ta’mirlash orqali erishiladi.

## Nazorat savollari

1. Neft va gaz konlarini ishlatishga qo‘yiladigan talablar haqida ma’lumot bering?
2. Jihozlarni ekspluatasiya qilishga nimalar kiradi?
3. Montaj va demontaj qilish ishlari qanday tartibda olib boriladi?

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**NEFT VA GAZ FAKULTETI**

**“TEXNOLOGIK MASHINALAR VA JIHOZLAR”**

**kafedrasi**

**5320300 - “Texnologik mashinalar va jihozlar” bakalavriat ta'lif  
yo'nalishi talabalari uchun**


**“Neft va gaz konlari mashina va jihozlarini montaji va ta'miri”**

fanidan

**LABORATORIYA MASHG'UIOTLARINI BAJARISH BO'YICHA**

# **USLUBIY KO'RSATMA**

**IV semester**



**Qarshi – 2022 yil**

**Tuzuvchi:** QarMII, «Texnologik mashinalar va jihozlar» kafedrasini katta o‘qituvchisi F.A.Salohiddinov.

**Taqrizchilar:** “Sho‘rtan gaz kimyo majmuasi” MCHJ, sifat nazorati guruhi rahbari; k.f.n. Z. Yu. Jo‘rayev

QarMII, “Texnologik mashinalar va jihozlar” kafedrasini dotsenti, t.f.n. X. Q.Eshkabilov.

Uslubiy ko’rsatma “Texnologik mashinalar va jihozlar” kafedrasining 2021 yil 25 avgustdagi 1 - sonli, “Neft va gaz” fakulteti Uslubiy kommissiyasining 2021 yil 26 avgustdagi 1- sonli, institut Uslubiy Kengashining 2021 yil 28 avgustdagi 1 - sonli yig‘ilishlarida ko‘rib chiqilib tasdiqlangan.

Laboratoriya mashg’ulotlarini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma "Neft va gaz konlari mashina va jihozlarini montaji va ta'miri" fanidan jami 5 ta laboratoriya ishini o'z ichiga olgan bo'lib, 5320300- "Texnologik mashinalar va jihozlar" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Har bir laboratoriya ishi materialnning nazariy bayoni, tajriba qurilmasi tavsifi, o'tkazish tartibi va o'tkazish usuli, hamda bajarilgan ish bo'yicha hisobotini o'z ichiga oladi.

## K I R I S H

“Neft va gaz konlari mashina va jihozlarini montaji va ta’miri” fanidan laboratoriya mashg’ulotlarni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma neft va gaz sanoati texnologik mashina va jihozlarini hisoblash va loyihalashda materiallarni tanlash, o'lchamlarini belgilash, maqbul konstruksiyalarini taqqoslash masalalarini o'z ichiga olgan. Shuningdek texnologik jihozlarni ishga tushirish, ishlatish davrida ichki muhit va tashqi kuchlar ta'sirida yuzaga keladigan kuchlanishlar hisobiga yuzaga keladigan yuklamalarni aniqlashda kuch tasnifiga ko'ra hisoblash usullari bo'yicha masalalar keltirilgan.

Talabalar ushbu uslubiy ko'rsatmada keltirilgan materiallarni o'rganish orqali fan bo'yicha neft va gaz sanoatida qo'llaniladigan texnologik jihozlarni konstruksiyalarini, ularning elementlarini bajarilishi kabi bir qator ma'lumotlarni, fanning mazmu-mohiyatini va mavzularga oid ma'lumotlarni o'rganish orqali sohaga oid mashina va jihozlar to‘g‘risida nazariy bilimlarini boyitadilar.

Ushbu uslubiy ko'rsatma 5320300 – “Texnologik mashinalar va jihozlar” bakalavriat ta’lim yo’nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, undan neft va gaz texnologik mashina va jihozlarini montaji va ta’mirlash tizimiga ta’lluqli boshqa yo‘nalishdagi o‘rganuvchilar ham foydalanishlari mumkin.

## MUNDARIJA

### KIRISH

**Laboratoriya ishlarini bajarishda texnika xavfsizligi qoidalari**

**1-Laboratoriya ishi. Vintli elektrnasos uskunalarini detallari materiallarini o'rganish**

**2-Laboratoriya ishi. Diafragmali elektrnasoslarni o'rganish**

**3-Laboratoriya ishi. Gidroporshenli nasos agregatlarni o'rganish**

**4-Laboratoriya ishi. Gidrouzatmali chuqurlik quduq nasoslarini o'rganish**

**5-Laboratoriya ishi. Shtangali tebratma dastgohlarni o'rganish**

**Adabiyotlar**

## **Laboratoriya ishlarini bajarishda texnika xavfsizligi qoidalari**

*Elektr dastaklar va uskunalar bilan ishlash qoidalari.*

- 1) Tez alangalanuvchi moddalar va erituvchilar bilan ishlaganda ochiq holdagi elektr simli asboblardan foydalanish taqiqlanadi.
- 2) Elektr asboblardan yong'in chiqan holatda ularni asbest mato yoki o't o'chirgichlardan foydalanib o'chirish zarur.
- 3) Elektr asboblardan foydalanib bo'lingandan so'ng, ularni elektr tarmog'idan uzib qo'yish talab etiladi.

*Gaz moddalari bilan ishlash qoidalari.*

- 1) Gaz bilan to'ldirilgan balon, idishlar issiqlik ta'siridan saqlanishi kerak.
- 2) Yonuvchan gazlar bilan ishlaganda asboblар germetik yopiq va olovdan saqlangan bo'lishi kerak.
- 3) Standart gaz balonlari maxsus ko'rsatilgan joylarda saqlanishi kerak.

*Uskunalarni ishga tayyorlash.*

Uskunalarni yig'ishda ularni tozaligiga, biriktirish moslamalariga e'tibor berish tajribani samaradorligini yaxshilaydi. Kimyoviy idishlarni yuvishda xromli aralashmadan foydalanish zarur. Metaldan yasalgan uskunalar: reaktor, kublarni kerosin, benzinda yuvib, toza havoda quritish kerak. Shundan so'ng ishni olib borish mumkin, tajribani olib borishdan avval, ishni bajarish usuli bilan to'liq tanishib chiqish kerak.

*Tajriba natijalarini tekshirish.*

Laboratoriya ishlarini olib borishda o'lhash va tortish ishlarini aniq bajarish kerak. Material balanslari talabga javob berib, yo'qotilish 0,10-1,6 foizdan oshmasligi zarurdir. Hisoblash ishlari to'g'ri bo'lishi uchun aniq o'lhash va qayta hisoblash lozimdir. Ish bajarilib bo'lgandan so'ng, quyidagi tarzda hisobot topshirilishi zarur:

1. Ishdan maqsad, ishni olib borish tartibi.
2. Apparat va sxemalarni ta'rifi.
3. Tajribani tavsifi.
4. Tajribani olib borilish sharoitlari ( $P > T$ ).
5. Xulosa.
6. Foydalanilgan adabiyotlar.

## **1-laboratoriya ishi.**

**Mavzu:** Vintli elektrnasos uskunalarini detallari materiallarini o‘rganish.

*Ishning maqsadi:* Vintli elektrnasos uskunalarini detallari turlari va materiallarini turlarini qo‘llanishi bilan tanishish. Vintli nasoslarni ishlash ko‘rsatkichlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilish.

*Mashg’ulot uchun kerakli jihozlar:* vintli elektrnasos, tarkibiy qism detallari

### **1.1. Umumiy ma’lumotlar**

Zamonaviy kimyo, neft va neft-gazni qayta ishlash korxonalari xalq xo‘jaligi uchun juda zarur bo‘lgan ko‘p sonli mahsulotlarni olish uchun mo‘ljallangan murakkab texnologik qurilma, mashina va uskunalar majmuasini aks ettirdi. Bu texnologik uskunalar konstruksiyasi va qo‘llanishi bo‘yicha turlicha bo‘lgan mashinalar, qurilmalar va transport vositalarini, shuningdek, avtomatik rostlash va nazorat qilish vositalarini o‘z ichiga oladi. Bularning hammasi umumlashgan holda **uskunalar** deb ataladi.

Vintli nasoslar qovushqoqoligi yuqori bo‘lgan suyuqliklarni haydash uchun qo‘llaniladi. Ularning ish unumdorligi va napor hosil qilishi yuqori bo‘lib hisoblanadi. Bu nasoslar hajmiy turdagи bo‘lib, bu nasolarning boshqa nomlanishi ham kuzatiladi: shnekli, chervyakli, gerotorli va eksentrik kabilar.



### **1.1-rasm. Vintli elektrnasos umumiy ko‘rinishi**

Vintli nasoslar rotor-tishli ko‘rinishga tegishli bo‘lib, shartli ravishda bir vintli va ko‘p vintli turlarga bo‘linadi.

Bir vintli nasoslarni shartli ravishda yuqori unumdorlikka ega katta hajmda mahsulotni haydash uchun mo‘ljallangan va bochka (ko‘chma tara)lar uchun shnekli nasoslarga ajratish mumkin.

Vintli nasos konstruksiyasini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, istalgan vintli nasosni ikki qismga ajratish mumkin. Birinchi qism nasos ishchi qismini harakatga keltirib, suyuqlikni haydashga kuch hosil qiladi. Unga dvigatel va reduktor kiradi. Ikkinci – nasosning mexanik qismi bo‘lib, bunda ma’lum bir unumdorlikda suyuqlikni haydash amalga oshadi.

Vintli nasos uzatmasi sifatida, odatda asinxron yopiq turdagি elektr dvigatel qo‘llaniladi. Elektrdvigatel quvvati 5-20 kVt ga yetishi, va aylanish chastotasi 300 dan 1500 ayl/min. oralig‘ida o‘zgaradi.

Qoidaga ko‘ra, barcha vintli nasoslar konstruksiyasi bo‘yicha kamaytiruvchi reduktorlar bilan ta’milnadi. Reduktor dvigatel va mexanik qismlarni bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lib hisoblanadi. O‘ elektrodvigateldan nasosga o‘tadigan aylanishlar soni o‘zgartirish uchun xizmat qiladi

## **1.2. Vintli elektnasos uskunasini tuzilishi**

Vintli elektrnasoslarning (VEN) qurilmasi, elektr dvigateldan gidravlik himoya, nasos kabeli, quduq usti jihozlari va boshqaruv stansiyasidan, avtotransformatordan tashkil topgan.

Vintli elektr nasoslarning (VEN) qurilmasi yuqoridagi tugunlardan iborat bo\_ladi, botma markazdan qochma nasos qurilmasi kabidir. Bunda markazdan qochma nasosni o\_rniga vintli nasosdan foydalaniladi. Botma vintli elektrnasoslarning qurilmalarida (BVENQ) chastotasi 1500ay/daq bo\_lgan to\_rt qutbli botma elektr dvigatellar qo\_llaniladi.

## **1.3. Ishni bajarish tartibi**

Botma vintli nasos (1.2-rasm) quyidagi asosiy tugunlar va detallardan tashkil topgan. Ishga qo\_shuvchi mufta (1) yordamida nasosning vali orqali protektor botma elektr dvigateling vali bilan biriktiriladi;


Ekssentrik muftalar (2 va 5);

O‘ng va chap halqalar (3 va 6) va vintlar bilan (4 va 7) oldindan himoyalovchi klapan, quvurlar (9) bilan biriktiriladi.


Vintli nasosning ishchi organi bir kirimli po\_latli vintli hisoblanadi, ichki bo\_shlig\_i ikki kirim qadamli vintli sirt ko\_rinishida bo\_ladi, vintni qadamidan 2-marta katta. Suyuqlik nasosning qabul qilgichiga filtrli to\_r orqali kirib keladi. Vintlar bir- biri bilan eksentrik muftalar bilan biriktiriladi. Vint va halqa oralig\_ida erkin bo\_shliq yoki kamera qoldiriladi.

Vint aylantirilganda u haydalananidan suyuqlik bilan to\_ldiriladi, bunda

aylantirish davom etganda germetik tutashadi va suyuqlik vint o\_qi bo\_ylab NKQga kiradi. Vint to\_xtovsiz aylantirilganda vint va halqa oralig\_ida bo\_shliq ochiladi va tutashadi. Vint bilan halqaning umumiy suyuqlikka to\_ldirilgan chiqish maydonining ko\_ndalang kesim yuzasi o\_zgarmasdan qoladi va oqim doimo to\_xtovsiz harakatlanadi va vintning aylanish chastotasiga proporsional qoladi. Ishchi vintning ajralib turadigan xususiyati har qanday ko\_ndalang kesim yuzasi, aylanish o\_qiga perpendekulyar, to\_g\_ri aylana ko\_rinishidadir. Bu aylanalarining markazi vint chizig\_ida yotadi, o\_q esa hamma vintlarni aylanishiga hisoblanadi.



**1.1-rasm. Vintli nasosning ishchi organlari:** 1-vint; 2-halqa.



**1.2-rasm. Botma vintli nasos:**

1-ishga qo\_shuvchi mufta; 2 va 5 ekszenrikmufta; 3 va 6 o\_ng va chap halqa; 4 va 7 vintlar; 8-himoyalovchi klapan; 9-quvurlar.

#### **1.4. Hisobot tarkibi.**

Quvurlar quyidagi mustahkamlik guruhdagi pulatlardan tayyorlanadi.

Po‘latning mustahkamlik guruhi	Oquvchanlik chegarasi kichik emas. MPa
Д	379 (373)
К	491
Э	552
Л	654
М	758
Р	93
Т	1035

Vintli elektrnasoslar materiallari, mustahkamlik guruhi, germetikligi, korroziyaga qarshi chidamliligi, rezbasi, tezda yig‘ilishi, o‘lchamlari, parafin va tuzlarning yotqiziqlariga qarshilik ko‘rsata olishi bilan ajralib turadi.

#### **Talabalar bajaradigan topshiriqlar**

1. Vintli elektrnasos uskunasining ishlatilish soxasi.
2. Vintli elektrnasos uskunasi haqida ma’lumot.
3. Vintli elektrnasos uskunasining materiallari haqida ma’lumot.

#### **1.5.O’zlashtirilgan amaliy ko’nikmalarni taqqoslash**

Nasos markasi	Aylanishlar soni, n, ayl/min	Suyuqlikning midqori, Q	Bosim qiymatlari, P		Umumiy napor, N, m	Quvvat N, kVt	Foydalan ish koeff. η, %
			kg.k/sm <sup>2</sup>	mm.sim.ust			

#### **Nazorat savollari**

1. Vintli elektrnasos uskunasini qo‘llanilish sohalarini izohlang?
2. Vintli elektrnasos uchun ishlatiladigan materiallarni ayting?
3. Vintli elektrnasos uskunasi qismlari haqida tushuncha bering?
4. Vintli elektrnasos uskunasi materiali haqida ma’lumot bering?

## 2-laboratoriya ishi.

**Mavzu:** Diafragmali elektrnasoslarni o‘rganish.

**Ishning maqsadi:** Diafragmali elektrnasoslarni asosiy parametrlarini o`rganish


**Mashg’ulot uchun kerakli jihozlar:** Diafragmali elektrnasos, tarkibiy qism detallari

### 2.1. Nazariy ma’lumotlar

Diafragmali nasos-porshen vazifasini egiluvchan plastina-membrana bajaradigan nasos; membrananing chetlari mahkamlanib, richagli mexanizm yoki muhitning o‘zgaruvchan bosimi ta’sirida egiladi. Diafragma bir tomoniga egilganda suyuklik so‘riladi, ikkinchi tomoniga egilganda esa suyuklik haydaladi.

Membranalni nasos suv, kimyoviy jihatdan faol moddalarni va yengil alangalanadigan suyuqliklarni uzatishda qo’llaniladi.

Diafragmali nasoslarning ishchi organi egiluvchan plastinalardan (membrana yoki diafragma) va uni xarakatga keltiruvchi richagli mexanizmdan tashkil topgan. Membranani ichiga siqilgan havo uni harakatga keltirib suyuqliknini siqib chiqaradi. Bu vaqtida ikkinchi membrana vakuum hosil qiladi va bu jarayon shu tarzda davom etadi.



2.1-rasm. Diafragmali nasoslarning umumiyo ko’rinishi

#### Afzalliklari:

1. Konstruksiyasi oddiy va ishonchli

2. Dvigatel va reduktorlarni yo'qligi, mahkamlovchi podshipniklar va aylanuvchi qismlarini bo'lmasligi.

3. Qulay o'lchamlari va yengilligi.

4. Sarfni nazjrat qilishdagi oddiylik- havo bosimini o'zgartirish bilan sarfni 0 dan maksimumgacha o'zgartirish mumkin.


5. Foydalanishdagi universalligi-suv,yopishqoq suyuqliklar va tarkibida qattiq aralashmali suyuqliklarda ham ishlaydi.

### Kamchiliklari:

1. Membranani ishlash vaqtida cho'zilishi natijasida tez yaroqsizlanishi.

2. Klapanlarini ifloslanishi natijasida tez ishdan chiqishi.

### Ishning tartibi:




**2.2-rasm.** Diafragmali nasosning tarkibiy qismlari

### 2.2. Ishni bajarish tartibi

Uzatish quvuriga manometr va suyuqlik miqdorini rostlovchi ventil urnatilgan. Uzatish quvuri orqali suyuqlik idishlarga uzatiladi. Har bir idishda suyuqlik sathini o'lchovchi shisha naychalar o'rnatilgan. Idishlardagi suyuqlik jumraklar orqali suyuqlik suriladigan idishga beriladi. Ish unumdarligi ventilni ochilishi bilan uzgartiriladi. Nasos qurilmasini sinashga Q-N, Q-H, Q -η orasidagi bog`lanishlarni aniqlashga kerak buladigan kattaliklar uzatilayotgan suyuqliknинг miqdori, surish quvuridagi vakuum,

uzatish quvuridagi bosim, dvigatel iste'mol qilayotgan kuchlanish aniqlanadi. Nasos qurilmasi ishlashi paytida bu kattaliklar, ya'ni uzatilayotgan suyuqlikning miqdori shisha naychasining ko'rsatkichlari bo'yicha, vaqt esa sekundomer bilan ulchanib, hisoblash jadvaliga yoziladi.



#### **2.4. – Botma diafragmali elektrnasos :**

1 – tok utkazgich; 2 – haydovchi klapan; 3 – suruvchi klapan; 4 – diafragma; 5 – prujina; 6 – plunjерli nasos; 7 – eksentrik uzatma; 8 – konsimon reduktor; 9 – elektrodvigatel; 10 – kompensator

#### **2.3.O'zlashtirilgan amaliy ko'nikmalarni taqqoslash**

Nasos markasi	Aylanishlar soni, n, ayl/min	Suyuqlikning miqdori, Q	Bosim qiymatlari, P		Umumiy napor, N, m	Quvvat N, kVt	Foydalan ish koeff. η, %
			kg.k/sm <sup>2</sup>	mm.sim.ust			

#### **Nazorat savollari**

1. Diafragmali nasoslarning turlari.
2. Diafragmali nasosning tuzilishi
3. Diafragmali elektrnasosning ishlash prinsipi.

4. Diafragmali elektrnaso nasoslarning qo'llanilish sohalri.

### 3-laboratoriya ishi.

**Mavzu:** Gidroporshenli nasos agregatlarni o'rganish

**Ishning maqsadi:** Gidroporshenli nasos aggregatini asosiy ishchi ko'rsatkichlarini o'rganish

*Mashg'ulot uchun kerakli jihozlar:* Gidroporshenli nasos aggregati, tarkibiy qism detallari

#### 3.1. Gidravlik porshenli nasoslar

Porshenli nasoslar plunjер yoki porshenni silindrda ilgarilama-qaytma harakati yordamida suyuqlikni siqib chiqarish prinsipiiga asoslangan (2.35-rasm). Porshenni o'ng tomonga qilgan harakatidan keyin, silindrning chap qismida havoni siyraklanishi sodir bo'lib, so'rish klapani ochiladi va so'rish quvuri orqali suyuqlik silindrga tortib olinadi. Porshen chapga surilganda so'rish klapani berkilib, uzatish klapani ochiladi va suyuqlik haydash quvuri orqali uzatila boshlaydi.

Porshen krivoship-shatunli mexanizm yordamida harakatga keltiriladi. Porshen silindrda zichlovchi halqalar yordamida siqib turiladi. Porshenli nasoslar uzatmasi turiga qarab, bevosita ulanuvchi va uzatmali bo'ladi.




**3.1-rasm. Gidravlik porshenli nasos umumiyo'k'rinishi**

Bevosita ulangan nasoslar bug' nasoslar yordamida harakatlanadi, bunda nasos porshen bilan bitta shtokda joylashgan bo'ladi. Uzatmali nasoslar elektr yuritkich yordamida harakatga keltiriladi. Nasoslar krivoship aylanish chastotasiga qarab, sekin aylanadigan ( $n=45\dots60 \text{ min}^{-1}$ ), o'rtacha ( $n=60\dots120 \text{ min}^{-1}$ ) va tez aylanadigan ( $n=120\dots180 \text{ min}^{-1}$ ) larga bo'linadi.

Porshenli nasoslar vertikal va gorizontal bo'lishi mumkin. Yuqori bosimli nasoslar 100 MPa gacha bo'lgan bosimni ta'minlab bersa, yuqori mahsuldarlik nasos esa, soatiga 60 m<sup>3</sup> suyuqlik haydar beradi.

Porshenli nasoslar uchun so‘rish va uzatish jarayoni davriy bo‘lib, suyuqlikni uzatish bir tekis amalga oshmaydi.



**3.2-rasm. Differensial turdagি GPN prinsipial sxemasi** (bir tomonlama haydovchi) a-pastga; b – yuqoriga. 1-plunjер, 2- haydash klapani, 3- suruvchi klapan, 4- porshen, 5 – boshqaruvchi klapan, 6- kanal, 7- maxsus kanal,8-kanal.

### 3.2. Ishni bajarish tartibi

Gidravlik porshenli nasos qurilmasi (3.4-rasm) botma jihozlar va kuch beruvchi nasosdan (2) suyuqlikni tindiruvchi idishdan (1) va tozalash ko‘targichidan (3) tashkil topgan.

Botma jihozlar nasos qurilmasidan tashkil topgan bo‘ladi, gidravlik dvigatel (6) va nasosdan iborat bo‘lib, porshen shtok bilan qattiq biriktirilgan.


Quduqlarni gidravlik porshenli nasoslar bilan ishlatishda, unga ikki qatorli kontsentrik holda joylashgan (4) va (5) NKQ lar tushiriladi. Diametri 62mm va 102mm, uning uchlarida egar joylashgan bo‘ladi, konusda (7) zinch mahkam joylashtiriladi.

Nasos 63 mm-li quvurga tushuriladi, o’tiradigan egarga suyuqlik oqimini siqadi, bu suyuqlik yuqoridan kuch bilan haydaladi. Dvigatel va nasosning oralig’ida joylashgan zolotnik qurilmasi yordamida harakatga keltiriladi.

Porshen dvigatel bilan birgalikda, porshen nasosi ilgarilanma qaytma harakatini tugallaydi va suyuqlikni quduqdan haydar chiqaradi, halqa oralig’i orqali yer ustiga ishchi suyuqlik bilan birgalikda ko‘tariladi.

Botma agregatni almashtirish NKQ-ni ko‘tarmasdan amalga oshiriladi. Agregat quduqdan ishchi suyuqlikni ta’siri asosida ko‘tariladi. Bunda suyuqlik halqa fazasiga agregat tagiga haydaladi va uni bosim ta’sirida ushlagich saqlab oladi. Gidravlik porshenli nasos yordamida juda chuqur quduqlardan (4000 metrgacha) suyuqlikni 20m<sup>3</sup>/kun davomida ko‘tarish mumkin. Gidravlik porshenli qurilmaning FIK=0.6 ga yetadi.

Gidravlik porshenli qurilmaning kamchiligi har bir quduqning atrofida ishchi suyuqlik uchun hovuz va maxsus kuch nasoslarini o'rnatishni talab qiladi.



**3.5-rasm. Gidravlik porshenli nasos qurilmasining sxemasi:**

1-suyuqlikni tindiruvchi idish; 2-kuch beruvchi nasos; 3-ko'targich; 4 va 5 nasos kompressor quvurlari; 6-gidravlik dvigatel va nasos; 7-konus.

### 3.3.O'zlashtirilgan amaliy ko'nikmalarni taqqoslash

Nasos markasi	Aylanishlar soni, n, ayl/min	Suyuqliking miqdori, Q	Bosim qiymatlari, P		Umumiy napor, N, m	Quvvat N, kVt	Foydalan ish koeff. η, %
			kg.k/sm <sup>2</sup>	mm.sim.ust			

### Nazorat savollari

1. Gidroporshenli nasoslarning turlari.
2. Gidroporshenli nasosning tuzilishi va ishlash prinsipi.
3. Gidroporshenli nasos agregatini xarakteristikalari.

## 4-laboratoriya ishi.

**Mavzu:** Gidrouzatmali chuqurlik quduq nasoslarini o‘rganish.

**Ishning maqsadi:** Gidrouzatmali chuqurlik quduq nasosini asosiy parametrlarini o‘rganish

**Mashg’ulot uchun kerakli jihozlar:** Gidrouzatmali chuqurlik quduq nasosi, tarkibiy qism detallari

### 4.1. Chuqurlik quduq nasoslarining yer usti jihozlari

Nasos quvurlarini osib qoyish uchun, mahsulotlarni quduqdan otma chiziqqa yo’naltirish, quduq ustunini germetiklash, quvur orqa fazasidagi gazni olishni ta’minlash va hakoza ishlarni amalga oshirishda, quduq ustiga maxsus jihozlar o’rnatalidi.




### 4.1- rasm. Chuqurlik quduq nasosining umumiyo ko’rinishi

Quduq usti jihizi shtangali chuqurlik qurilmasi, planshaybadan va uchlik salnikdan tuzilgan. 4.2-rasmida bu jihozlarning umumiyo ko’rinishi tasvirlangan.

Tizma flanetsiga (1) planshayba (2) va unga osilgan quvur (3) o’rnatalidi. Planshaybada (2) quvur orqa fazasidagi gazni chiqarib yuborishda va quduqdagi suyuqlik sathini o’lchash uchun teshik o’rnataligan. Yuqori muftaga (4) uchlik burab (5) o’rnatalgan bo’ladi, u orqali neft otma chiziqqa uzatiladi.

Uchlikning germetikligini ta'minlash uchun hamda salnikli shtokni (7) tushirish uchun uchlikning yuqori qismiga salnik (6) o'rnatiladi, bunda u yuqorisidan qopqoq (8) bilan mahkamlanadi.




#### **4.2-rasm. Nasosli quduqlarini yer usti jihozlari**

1-tizma flanetsi; 2-planshayba; 3-quvur; 4-yuqori mufta; 5-uchlik; 6-salnik; 7-salnikli shtok; 8-zichlovchi qopqoq.

4.2-rasmda arqonli ilgich NQAI (normal qatorli arqonli ilgich) shtangali aylantirgich bilan tasvirlangan. Shtangali aylantirgichlar smolali va parafinli neftlarni qazib olishda qo'llaniladi.

Neft (suyuqlik) quduqdagi suyuqlik shtangali nasos orqali uchlikning yon ostidagi otma chiziqqa va undan keyin GO'K (guruqli o'lchash qurilmasi) ga uzatiladi. Quduqqa manometr, harorat o'lchagich asbobi, olgichni yoki boshqa asboblarning quvur oralig'i fazasi, ya'ni quvurchani burash uchun teshik markazdan ma'lum masofaga siljitaladi va quduq asboblari undagi maxsus teshiklar orqali tushiriladi. Plunjerni yoki suqma nasoslarni yer ustiga chiqarib olish uchun, birikmadan va uchlikdan uni demontaj qilinmasdan, o'zini alohida zichlovchi quduq usti (8) jihozlari orqali chiqarib olinadi.



4.3- rasm. Normal qatorli arqon ilgichli shtangali aylantirgichli turidagi arqonli osilma.

1-yuqoridagi travers; 2-sharikli podshipnik; 3-vtulka; 4-plashka; 5-qisuvchi gayka; 6-salnikli shtok; 7-chervyakli val; 8-kronshteyn; 9-po'lat arqon; 10-xrapovik halqasi; 11-richag; 12-vintlar; 13-tish; 14-teshiklar; 15-qoyi traverses; 16-tayanch vtulkalar; 17-qisuvchi gayka.

#### **4.2. Ishni bajarish tartibi**

Uchlikning rez'basini tushurish ko'tarish jarayonlarida himoyalash uchun unga maxsus flanets burab o'rnatiladi, ya'ni u bir vaqtning o'zida shtangali elevatording tayanchi sifatida xizmat qiladi. Salnik shtoki arqonli osilma yordamida, kallakning muvozanatlagichiga ilinadi. Arqonli osilma ikkita saqlab turgichdan, traversli ponadan iborat bo'ladi, arqon va salnik shtoklar uchun mo'ljallangan.

Salnikli shtok (6) ponali qamrovchi (9) qisqich yordamida yuqori traversga (1) osiladi, po'lat (9) arqoning uchiga rolik orqali oshirilgan va qisuvchi plashkalarda muvozanatlagich dastgohini boshchasiga mahkamlangan pastki travers (15), nasos plunjeri tagidagi yuk shtanga va suyuqlik ustuni bilan hosil qilinadi, yuqori travers bu yukni qabul qiladi, tayanch vtulka (16) orqali yukni pastki traversga uzatadi.

Vintlar (12) yordamchi ahamiyatga ega bo'ladi, traverslar oralig'idagi masofani ba'zi holatlarda kattalashtirish uchun xizmat qiladi, ya'ni unga maxsus dinomagraf asbobi o'rnatiladi. Dinomagraf-asbobi tebratma-dastgohni ishida yuklarni o'lchashda qo'llaniladi. Ponali qisgich ichki konussimon yo'nilmali va chervyakli shesternali vtulkadan (3), konussimon tashqi sirtli plashkadan (4) va qisuvchi gaykadan (5) tuzilgan. Tashqi traversga arqonni o'rnatish vtulka (16) va plashkali pona yordamida amalga oshiriladi, qaysiki u qisuvchi gayka (17) yordamida mahkamlab chiqiladi. Arqonning uchiga qurg'oshin qoyib mahkamlanadi. Arqonli osmadagi traversning (1) chuqurligiga o'rnatiladigan sharikli podshipnikka (2) shesternaning pastki sirti borib tayanadi. Chervyakli val (17) shesterna tishiga kiradi, unga ikkita kronshteyn (8) yordamida sirpanuvchi podshipniklar traversga o'rnatilgan. Valikni uchiga richag kiydirilgan (11), betlarini oralig'iga krapovik halqasi o'rnatilgan.

Richagning uchiga troslar uchun teshiklar (14) yo'nilgan. Salnikli shtokni yurishining oxirida, pastdan richag tebratma dastgoh va tishga mahkamlangan tross (15) yordamida ko'tariladi, xropovik halqasi tishiga tirkaladi, chervyakli uzatma vositasi shtanga tizmasini  $45^0$ - $60^0$ ga aylantiradi.

Salnik shtoki yuqoriga yurishida chervyakli uzatmaning o'zini-o'zi tormozlashi hisobiga xropovik halqasi qo'zg'almas bo'ladi, richag og'irlilik kuchi ta'sirida chegaralangan sathgacha tushib boradi. Shu paytda kuchukcha xrapovik halqasi bitta yoki ikkita tishini o'tkazadi va yana oldingi holatni egallaydi. Neftni qazib olishda tarkibida smola parafinli yotqiziqlar mavjud bo'lmasa, osilmaga shtangali aylantirgich qoyilmaydi.

#### **4.3.O'zlashtirilgan amaliy ko'nikmalarni taqqoslash**

Nasos markasi	Aylanishlar soni, n, ayl/min	Suyuqlikning miqdori, Q	Bosim qiymatlari, P		Umumiy napor, N, m	Quvvat N, kVt	Foydalan ish koeff. η, %
			kg.k/sm <sup>2</sup>	mm.sim.ust			

#### **Nazorat savollari**

1. Gidrouzatmali chuqurlik quduq nasoslarning turlari.
2. Gidrouzatmali chuqurlik quduq nasosning tuzilishi va ishlash prinsipi.
3. Gidrouzatmali chuqurlik quduq nasos xarakteristikalarini.

## **5-laboratoriya ishi.**

**Mavzu:** Shtangali tebratma dastgohlarni o‘rganish.

**Ishning maqsadi:** Shtangali tebratma dastgohlarni yer usti jihozlarni va unga xizmat qilishni o‘rganish.

*Mashg’ulot uchun kerakli jihozlar:* Shtangali tebratma dastgoh, tarkibiy qism detallari

### **5.1. Ishning tartibi: Nazariy qism**

Qatlam bosimi favvorali usulda ishlatish uchun yetarli bo‘lmagan neft konlarining asosiy qismi shtangali quduq nasoslari yordamida ishlatiladi. Bu turda ishlatish jarayonining jihozlari va uni xizmat qilishining soddaligi, quduqlarning jihozlanish harajatlarini katta emasligi, quduqning neft debiti bir necha kilogrammdan bir necha o‘n tonna bo‘lganda, quduqning ishlatishning iqtisodiy ko‘rsatkichlarining yuqori bo‘lishi bilan ajralib turadi.


Shtangali chuqurlik nasoslari yordamida chuqurligi 3000 metrgacha bo‘lgan quduqlardan neft qazib olish mumkin. Chuqurlik –nasoslari yordamida quduqlarning ishlatish asosan o‘rtacha debiti (30-40 t/kun-gacha) va kam debitli (1t/kun-gacha) neft quduqlarda ham qo‘llaniladi.

Chuqurlik shtangali nasoc maxsus konstruksiyali plunjерli nasos ko‘rinishidadir. Nasoslardagi uzatmali harakat yer usti orqali shtanga tizmasi orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bunday nasoslar chuqurlik shtangali nasoslar deb ataladi.

Shtangali nasos qurilmasi (5.1-rasm) chuqurlik plunjер (1) nasosidan tuzilgan bo‘lib, NKQ (4) orqali quduqdagi dinamik sathga tushiriladi. Tebratma dastgoh quduq ustiga o‘rnatilib, quduq usti jihozlari salnikli uchtalik (troynik) va planshaybadan iboratdir. Quduqqa (3) shtangalarda nasos plunjeri (2) tushiriladi.

Yuqoridagi shtanga polirovkali (yaltiratilgan)shtok deb atilib, (6) salnik orqali o‘tib, travers va egiluvchan arqon osilmasi yordamida tebratma dastgoh balansir (7) kallagiga biriktiriladi.


Tebratma dastgohning xarakatlanishi elektrodvigatel uzatma tizimi yordamida amalga oshiriladi. Elektrodvigatel (11) tebratma dastgohni (12) reduktor, krivoship (1) va (9) shatun yordamida (8) balansirdagi (muvozanatlilik) ilgarilanma xarakatni hosil qiladi. Bu xarakat (3) tizma shtangi orqali nasos plunjeringa (2) uzatiladi. Quduq ustiga (5) uchtalik (troynik) o‘rnatilgan bo‘lib, unga neft quduqdan kirib keladi.



### **5.1-rasm. Shtangali chuqurlik nasosini qurilmasini ishlatalish sxemasi.**

1-chuqurlik nasos plunjeri; 2-plunjjer nasosi; 3-shtanga; 4-NKQ; 5-uchtalik; 6-salnik; 7-tebratish dastgohining balansiri; 8-kalpak; 9-shatun; 10-krivoship; 11-elektrordivigatel; 12-reduktor.

Uchtaлиkning yuqori qismida salnikli qurilma bo‘lib, u orqali yuqori shtanga (yaltiroq shtok) o‘tkazilgan va u quduq ustining germetikligini ta’minlaydi hamda nasos qurilmasi ishlab turganda neftni oqib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi. Uchtaлиkning o‘rtalig‘i qismida yon otilmasi bo‘lib, u orqali neft quduqdan otilma tizim chizig‘iga yo‘naltiriladi. Chuqurlik nasosi quyidagi tartibda ishlaydi.



### 5.2-rasm. Chuqurlik nasosining ishlash sxemasi

a-plunjer yuqoriga harakatlanganda; b-plunjer pastga harakatlanganda.

Plunjer (2) yuqoriga harakatlanganda (5.2-rasm, a) pastki suruvchi klapan suyuqlik ustun bosimi ta'sirida quvur orqa fazosiga ochiladi va neft (suyuqlik) nasos silindriga kirib keladi. Bu vaqtida yuqoridagi haydovchi klapan yopiq bo'ladi. Shunday qilib, unga nasos- kompressor quduqlardagi suyuqlik ustunining bosimi ta'sir qiladi.

Plunjer pastga harakatlanganda (5.2-rasm,b) plunjerdagi bosim ta'sirida nasosdagi suruvchi klapan yopiladi, haydovchi quduqdagi klapan ochiladi va suyuqlik nasosning silindridan ko'taruvchi quvurlarga o'tadi.

Nasosning to'xtovsiz ishlashi davomida, neft-nasos kompressor quvurlariga kirib keladi, quduq ustigacha ko'tariladi va uchtalik orqali otilma chiziqqa to'planadi.

### O'zlashtirilgan amaliy ko'nikmalarini taqqoslash

Nº							
1							
2							
3							

## **Talabalar bajaradigan topshiriqlar**

1. Shtangali tebratma dastgohga o‘rnatiladigan jihozlar haqida ma’lumot.
2. Shtangali tebratma dastgoh haqida ma’lumot.
3. Shtangali tebratma dastgohlarni jihozlanish tartibi.
4. Shtangali tebratma dastgohning texnik tavsifi.

## **Nazorat savollari**

1. Shtangali tebratma dastgohlarning yer usti jihozlari turlarini izohlang?
2. Balansir boshchasini vazifasini izohlang?
3. Qanday konlardagi quduqlar mexanik usulida ishlataladi?

## **6. Adabiyotlar.**

1. Akramov B.SH., Kichkinakov G. “Neft va gaz konlari mashina va mexanizmlari” fanidan amaliy mashgulotlar uchun uslubiy qo‘llanma. Toshkent, 2000.
2. Akramov B.SH., Kichkinakov G. “Neft va gaz konlari mashina va mexanizmlari” fanini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2002 y.
3. Akramov B.Sh., Hayitov O.G’. Konlaming mashina mexanizmlari. O’quv qo‘llanma. T.: O‘qituvchi, 2004. 111 b.
4. M.D.Buronov “Quduq mahsulotlarini yig‘ish va o‘zatish” bo‘yicha O’UM. Toshd TU. 2012.
5. M.D.Buronov “Konlardan neft va gazni tayyorlash texnologiyasi” bo‘yicha O’UM. Toshd TU. 2012.
- 6.B.SH. Akramov, R.K. Sidiqxujayev “Neft va gaz quduqlarini ishlatish” Darslik. Toshkent. 2002.
- 7.S.SH. Xabibullayev, D.X. Maxmanov “Metallarni korroziyadan himoya qilish” o‘quv qo‘llanma. T.: 2016.
8. Akramov B.SH., Turayev B.M. “Neft va gaz konlari mashina va mexanizmlari” fanini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2008.
9. B.SH. Akramov., O.G. Xayitov. Neft va gaz konlarini mashina va jihozlari. O‘quv qo‘llanma.T.: O‘qituvchi, 2004.

## **Foydalaniłgan dabiyotlar**

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Akramov B.SH., Kichkinakov G. “Neft va gaz konlari mashina va mexanizmlari” fanidan amaliy mashgulotlar uchun uslubiy qo‘llanma. Toshkent, 2000.
2. Akramov B.SH., Kichkinakov G. “Neft va gaz konlari mashina va mexanizmlari” fanini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2002 y.
3. Akramov B.Sh., Hayitov O.G’. Konlaming mashina mexanizmlari. O’quv qo‘llanma. T.: O’qituvchi, 2004. 111 b.
4. M.D.Buronov “Quduq mahsulotlarini yig‘ish va o‘zatish” bo‘yicha O’UM. Toshd TU. 2012.
5. M.D.Buronov “Konlardan neft va gazni tayyorlash texnologiyasi” bo‘yicha O’UM. Toshd TU. 2012.
6. B.SH. Akramov, R.K. Sidiqxujayev “Neft va gaz quduqlarini ishlatish” Darslik. Toshkent. 2002.
7. S.SH. Xabibullayev, D.X. Maxmanov “Metallarni korroziyadan himoya qilish” o‘quv qo‘llanma. T.: 2016.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar.**

8. Адамянц П.П., Гусейнов Ч.С., Иванец В.К. Проектирование обустройства морских нефтегазовых месторождений - М.: ООО «ЦентрЛитНефтеГаз», 2005. -496 с.
9. Иванов С.И. Особенности разработки, освоения и эксплуатации газоконденсатных месторождений на завершающей стадии. - М.: ООО «Недра-Бизнесцентр», 2005.-247 с.: ил.
10. Ермилов О.М. Добыча газа и газоконденсата в осложненных условиях эксплуатации месторождений / О.М. Ермилов, А.Н. Лапердин, С.И. Иванов. Отв. редактор А.Э. Конторович. - Новосибирск: Издательство СО РАН, 2007.-291 с.
11. Akramov B.SH., Turayev B.M. “Neft va gaz konlari mashina va mexanizmlari” fanini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2008.
12. B.SH. Akramov., O.G. Xayitov. Neft va gaz konlarini mashina va jihozlari. O‘quv qo‘llanma.T.: O’qituvchi, 2004.
13. M.D. Bo’ronov “Quduq mahsulotlarini yig‘ish va o‘zatish” bo‘yicha amaliy darslar uchun qo‘llanma Toshd TU 2015.

14. M.D. Bo'ronov "Konlardan neft va gazni tayyorlash texnologiyasi" bo'yicha amaliy darslar uchun qo'llanma. ToshdTU 2015.

15. В. Я. Беляева. Нефтегазовое строительство. Омега -Л. М.: Учебное пособие. 2005

16. А.Ф.Суворов, Г.Г.Васильев. Сварочно-монтажные работы в трубопроводном строительстве. М.: Недра. 2006

17. В.Ф. Бочарников Справочник мастера по ремонту нефтегазового технологического оборудования Том 2, Учебно-практическое пособие, Инфра-Инженерия, М.:, 2015.

### **Axborot manbaalari**

18. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) - O'zbekiston Respublikasi pukumat portali.

19. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) — O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

20. <http://www//neftgas/uz>.

21. <http://mirgeografiy.ru>

22. <http://neftepro.ru>

23. [www.geologiva.ru](http://www.geologiva.ru)

24. [www.Ziyo.net](http://www.Ziyo.net)

## MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1-jadval

1	Quduqlardan suyuqlik va gazni qazib chiqarish uchun jihozlar.
2	Bir necha qatlamni bir quduq orqali bir vaqtda alohida ishlatish.
3	Quduqda ta'mir ishlarini bajarish uchun jihozlari.
4	Neft va gazni yig'ish va uzatish uchun jihozlar.
5	Tabiiy gazlarni kimyoviy usulda tayyorlashning ishlab chiqarishda qo'llanilishi.
6	Tabiiy gazlarni aralash (fizik-kimyoviy) usulda tayyorlashning mohiyati.
7	Tabiiy gazlarni aralash (fizik-kimyoviy) usulda tayyorlash texnologiyasi.
8	Tabiiy gazlarni kimyoviy usulda tayyorlashning afzalligi va kamchiliklari.
9	Tabiiy gazlarni aralash (fizik-kimyoviy) usulda tayyorlashning ishlab chiqarishda qo'llanilishi.
10	Gazlarni mexanik zarralardan tozalash usullari.
11	Gazlar mexanik zarralardan tozalash texnologik tarxlari.
12	Gazlarni mexanik zarralardan tozalash texnologik tarxlari uskuna va jihozlarini tanlash asoslari.
13	Gazlarni suv bug'laridan tozalash usullari. Tabiiy gazlar suv bug'laridan tozalash texnologik tarxlari.
14	Gazlarni suv bug'laridan tozalash texnologik tarxlari uskuna va jihozlarini tanlash asoslari.
15	Quduqlarning yer osti ta'miri jarayonini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash.
16	Ergonomikaning asosiy muammolari.
17	Neft va gaz konlari mashina va mexanizmlarini samarali ishlatish asoslari.
18	Tebranma dastgohni hisoblash.
19	Chuqurlik nasoslari hisobi.
20	Neft va gaz uskunalarini ostki fundamentini hisoblash.
21	Kryukga tushadigan og'irlikni hisoblash.

## FAN BO'YICHA GLOSSARIY

- Azeatrop aralashma** - qaynash haroratsi bir-biriga yaqin bo`lgan suyuqliklar.
- Azotlash-** po`latlarning yuza qatlamini ammiak muhitida azotga diffuzion usulda tuyintrish jarayoni;
- Anizatropiya-** monokristal hossalarining turli kristallografik yo`nalishlarda turlicha bo`lishi;
- Austenit-** uglerodning gamma temirdagi qattiq eritmasi bo`lib, uning tarkibida 800...1147°C haroratda 08...2,14 foiz uglerod miqdori bo`ladi
- Amorf jismlar-** atomlari tartibsiz joylashgan jismlar;
- Bronza-** misning ruxdan boshqa elementlar bilan hosil qiladigan qotishmalari nomi;
- Borlash-** po`latning yuza qatlamini diffuzion usulda borga toyintirish jarayoni;
- Vakansiya-** metall kristal panjarasidagi atomlardan bo'sh bo`lgan tugunlar;
- Deformatsiya-** metallaga biror kuch ta'sir etirilganda geometrik shaklining o'zgarishi;
- Demontaj** - yig`ilgan qurilmalarni bir necha bo`laklarga ajratish.
- Desorber** - adsorbentga yutilgan ajratib beruvchi qurilma.
- Drenaj** - kolonnalar pastki qismiga solinadigan mayda qum toshlari.
- Geometrik sig`im** - qurilmaning hajmi bo`lib, unga solinadigan mahsulot buyicha hajmini ko`rsatadi.
- Gidravlik aralashtirish** - suyuqlik yordamida aralashtirish.
- Metallarning mexanik xossalari**- tashqi kuchlar ta'siri ostida metallaning o'zini tutushini belgilaydigan tavsiflar;
- Metalning puhtaligi**- metalning deformatsiyaga ko'rsatadigan qarshiligi;
- Plastiklik**- metalning ma'lum sharoitda tashqi kuchlar ta'sirida yemirilmay o'z shaklini asliga qaytmaydigan tarzda o'zgartira olish xususiyati;
- Naklyop**- metalning plastik deformatsiya natijasida puhtaligi va qattiqligi ortib, plastikligini kamayish hodisasi;
- Rekristallanish**- naklyoplangan metall yuqori haroratda qizdirilganda shu metall hossalarining tiklanish jarayoni;
- Metallarni qizdirib bosim ostida ishlash**- metallarni rekristallanish haroratidan yuqori haroratlarda deformatsiyalash;
- Metallarni sovuqlayin bosim ostida ishlash**- metallarni rekristallanish haroratida past haroratlarda deformatsiyalash;
- Zatvor** - birorta suyuqlikni o`tkazadigan va boshqa fazani o`tkazmaydigan moslama.
- Qora metallar**- asosan temir, hamda uning qotishnalari (choyanlar, po`latar)
- Rangli metallar**- temirdan boshqa barcha metallar guruhi (mis, rux, alyuminiy va b )
- Kristal jismlar**- atomlari krestal panjara hosil qilib tartibli joylashgan jismlar;

**Monokristall-** atomlarning muayyan tartibda joylashuvi natijasida hosil bo'lgan geometrik jihatdan muntazam shakldagi jism;

**Polikristall-** har xil tarzda joylashgan monokristallar majmui;

**Fazoviy panjara-** bir biriga parallel joylashgan bir qancha kristallagrafik tekisliklardan fazoviy panjara hosil bo'ladi;

**Elementar katakcha-** kristal panjaraning eng kichik qismi(bo'lagi)

**Kristal panjaraning davri (parametri)-** elementar katakchadagi qo'shni ikki atom oralig'idagi masofa ;

**Metallarning birlamchi kristallanishi-** metallaning suyuq holatdan qattiq holatga o'tishi;

**Xaqiqiy kristallanish harorati-** susyuq metalning batamom kristallanib bo'lishiga to'g'ri keladigan harorat;

**O'ta sovish darjasasi-** metalning muvozanat harorati bilan haqiqiy kristallanish harorati orasidagi ayirma;

**Termoelektrik pirometr-** termik analiz vaqtida metallarning haroratini o'lchashda ishlatiladigan asbob;

**Kristallanishing yashirin issiqligi-** metall suyuq holatdan qattiq holatga o'tayotganda ajralib chiqadigan issiqlik;

**Metalning sovish egri chiqig'i-** metalning sovish jarayonida uning issiqligining o'zgarishini ko'rsatadigan grafik tasvir;

**Metall donalari-** (yoki kristallitlari)- muntazam geometrik shakli buzilgan kristallitlar;

**Modifikatorlar-** suyuq metalga mayda donalar hosil qilish uchun qo'shiladigan moddalar (zarralar)

**Dendrit-** shoxli daraht shaklidagi kristall

**Allotropiya (polimorfizm)-** bir metallning har xil haroratlarda turlicha kristall panjaralar hosil qila olish xususiyati;

**Qotishma-** ikki yoki undan ortiq elementlarni birga suyuqlantirish orqali hosil qilinadigan jism;

**Psevdoqotishmalar-** elemetlarni suyuqlantirmay turib, masalan, elektroliz qilish, sublimatlash va boshqa ussular bilan hosil qilinadigan qotishmalar;

**Sistema-** qotishmalar sistema deb ham ataladi;

**Komponent-** qotishmani tashkil etuvchi elementlarning har biri;

**Mehanik aralashmalar-** komponentlari suyuq holatda bir-birida eriydigan, qattiq holatda erimaydigan va o'zaro kimyoviy birikma hosil qilmaydigan qotishmalar;

**Qattik ertmalar-** qotishmaning bir komponenti atomlarining ikkinchi komponent kristal panjarasiga singishi yoki o'rın almashishi natijasida hosilbo'ladigan turi;

**Kimyoviy birikmalar-** birlamchi kristallanish jarayonida komponentlarining o'zaro kimyoviy reaksiyaga kirishuvi natijasida hosil bo'lgan qotishmalar;

**Qotishmalarining holat diaagrammalari-** qotishmalar holatining harorat va konsentratsiyaga qarab o'zgaruvini ko'rsatuvchi diagramma;

**Likvidu nuqtasi-** qotishmaning kristallanaboshlash haroratini ko'rsatuvchi nuqta;

**Solidus nuqtasi-** qotishmaning batamom kristallanib bo'lish haroratini ko'rsatuvchi nuqta;

**Evtektika-** sistemada eng past haroratda suyuqlanadigan (yoki qotadigan) qotishma;

**Faza-** qotishmaning bir-biridan chigara sirtlar bilan ajralib turadigan, bir jinsli qismi;

**Mikrstruktura-** mikroshlif mikroskop ostiga qoyib qaralganda ko'rinaradigan struktura

**Mikroshlif-** mikroskop ostida kuzatish uchun mahsus ishlov berib tayyorlangan metall namunasi;

**Ferrit-** uglerodning al'fa-temirdagi singish qattiq eritmasi;

**Sementit-** po'lat va choyanlarda uchraydigan temir karbidi

**Metal va qotishmalarining qattiqligi-** Metall yoki qotishmalarining o'zidan qattiqroq jisimning botishiga qarshilik ko'rsata olish xossasi;

**Metal va qotishmalarining texnologik xossalari-** Metallarni texnologik ishlash, ya'ni yuqish, bolg'alash, payvadlash, kesib ishlash uchun yaroqlilik darajasini ko'rsatuvchi xossalari (kirishuvchalik, suyuq holatda oquvchallik, bolg'alanuvchallik, kesib ishlanuvchallik va b.)

**Kirishuvchallik-** qolip va quyma o'lchamlari orasidagi farq;

**Suyuq holatda oquvchallik-** metall va qotishmalarining suyuq xolatda qolipni to'ldira olish xususiyati;

**Bolg'alanuvchallik-** Metall va qotishmalarining bolg'alash, shtamplash va prokatlash vaqtida o'z shaklini yemirilmay o'zgartira olish xususiyati;

**Payvandlanuvchanlik-** Metall va qotishmalarining payvandlashda puxta va zich birikma xosil qila olish xususiyati;

**Kesib ishlanuvchallik-** Vaqt birligi ichida yoki ma'lum ish sarf qilinadigan eng ko'p yunib tushurilgan qiridi og'irligi bilan boxolanadigan miqdor;

**Perlit-** freeit bilan semintetning mayin mexanikaviy aralashmasi;

**Ledeburt-1147 °C dan 727°C gacha semintit bilan austinitning 727°C dan uy xaroratigacha semintit bilan perliting mexanikaviy aralashmasi;**

**Grafit-** bu faza uglerodning shakl o'zgarishlaridan biri bo'lib, u plastinkalar yoki donalar shaklida bo'ladi;

**Uglerodli asbobsozlik po'latlari** - turli kesim, o'lchov asboblari va shtamplar tayorlash uchun ishlatiladigan sifatli va yuqori sifatli po'latlar

**Legirlangan po'latlar-** tarkibida ataylab qo'shilgan elementlar (masalan, xrom, nikel, molibden, volfram, vanadiy va b ) yoki ortiqcharoq miqdorda doimiy qo'shimchalar bo'lgan po'latlar

**Zanglamas po'latlar-** elektrokivyoviy korroziyaga chidamli po'latlar, uglerodli po'lat tarkibiga legirlovchi elementlarni qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi

**Olovbardosh po'latlar-yuqori** ( $550^{\circ}\text{C}$  dan baland) haroratlarda gazlar ta'siri ostida emirilmaydigan po'latlar;

**Issiqbardosh po'latlar-** yuqori haroratlarda yuk ta'siri ostida bo'ladigan detallar tayyorlash uchun ishlatiladigan po'latlar;

**Termik ishlash-** qotishmalarni ma'lum haroratlargacha qizdirish, shu haroratlarda ma'lum vaqt tutib turish, so'ogra esa ma'lum tezlik bilan sovitish yo'li bilan uning tuzilishini (strukturasini) va xossalari o'zgartirish jarayoni;

**Po'latni yumshatish-** po'latni ma'lum haroratlargacha qizdirib, shu haroratga zarur payt tutib turilgandan keyin sekin sovitish jarayoni;

**Po'latni normallash-** evtektoiddan oldingi po'latlarni  $Ac_3$  nuqtadan, evtektoiddan keyingi po'latlarni  $Ac_m$  nuqtadan  $30\dots50^{\circ}\text{C}$  yuqori haroratlargacha qizdirib, shu haroratda po'lat strukturasi nuqlu austinitdan iborat bo'lguncha tutib turilgandan keyin havoda sovitish jarayoni;

**Po'latni toplash-** po'latni  $Ac_3$  va  $Ac_1$  haroratlardan yuqori haroratlargacha qizdirib, po'lat strukturasida zarur o'zgarishlar bo'lguncha tutib turilgandan keyin tez sovitish jarayoni;

**Po'latning toblanuvchaligi-** toplash natijasida po'latning o'z qattiqligini oshira olish xususiyati;

**Po'lani bo'shatish-** toplanagan po'latni  $Ac_1$  kritik nuqtadan past haroratlargacha qizdirib, shu haroratlarda ma'lum vaqt tutib turilgandan keyin sekin yoki tez sovitish jarayoni;

**Sorbit-** austinitni  $630^{\circ}\text{C}$  gacha o'ta sovitib, shu haroratda tutib turilganda hosil bo'ladigan mayday donali, qattiqligi yuqori bo'lgan ferrit- sememtit aralashmasi;

**Troostit-** austinit tahminan  $500^{\circ}\text{C}$  gacha sovitilib, shu haroratda tutib turilganda hosil bo'ladigan, maydaligi va qattiqligi sorbitnikidan ham yuqori bo'lgan ferrit-sementit aralashmasi;

**Martensit-** austinetni taxminan  $240^{\circ}\text{C}$  gacha sovitganda xosil bo'ladigan, uglerodning alfa temirdagi o'ta toyingan qattiq eritmasidan iborat, juda qattiq va mo'rt struktura

**Qoldiq austenit** – tarkibida uglerod miqdori kuproq bo'lgan po'latlar tez sovitilganda martensitga aylanmay qolgan austenit;

**Toblashda sovitishning kritik tezligi-** po'latda martensit strukturasini hosil qilishga imkon beradigan eng kichik sovitish tezligi;

**Choyan-** tarkibida  $2,14\dots6,67\%$  uglerodi bo'lgan temir –uglerod qotishmasi

**Oq choyan-** tarbidaga uglerod temir bilan kamyoviy birikma (sementit) hosil qilgan, qattiq va mo'rt choyan;

**Kulrang choyan-** tarkibidagi erkin uglerod (grafit) plastinkasumon tarzda uchraydigan ho'yan;

**Bolg'alanuvchan choyan-** tarkibidagi erkin uglerod(grafit) bordoqnusha shaklida bo'ladigan choyan;

**Puxtaligi yuqori bo'lgan choyan-** tarkibidagi erkin uglerod (grafit) sharsumon shaklda mavjud bo'ladigan choyan;

**Choyanning grafitlanishi-** harorat ta'siri ostida oq choyan takibidagi kamyoviy birikkan ugleodning erkin (grafit) holatda ajralib chiqish jarayoni;

**Po'latga kimyoviy termik ishlov berish-** po'latning yuza qtlamining tarkibi, strukturasi va xossalari o'zgartirish maqsadida har-xil elementlar (uglerod, azot, bor va b) bilan toyintirish jarayoni;]

**Sementitlash-** po'lat yuzasini uglerod bilan boyitish jarayoni;

**Karbyurizator-** sementitlash jarayonida po'lat yuzasiga singadigan faol uglerod atomini hosil qilishga hizmat qiladigan qattiq , suyuq va gaz holatdagi moddalar;

**Sianlash**-po'lat yuzasini bir vaqtning o'zida uglerod va azot bilan toyintish jarayoni;

**Diffusion metallash**- yuqori harorat ostida po'lat yuzasiga alyuminiy, hrom, kremniy, bor, titan va b elementlar atomlarini diffusion sindirish

**Tezkesar po'lat**- Metallarga yuqori tezlik bilan og'ir shaaroitlarda kesib ishlov berish asboblari tayyorlash uchun ishlatiladigan, tarkibida volfram, molibden kabi o'tga chidamli metallar movjud bo'lgan po'lat;

**Shatmplar uchun po'latlar** - Po'latlarni sovuq xolatda va qizdirilgan holatda diformatsiyalovchi asboblar (shtamplar) tayyorlash uchun ishlatiladigan yuqori xaroratga chidamli asboblar;

